Маълумки, “Таълим тўғрисида”ги Қонун, “Кадрлар тайёрлаш миллий Дастури” асосида таълим тизимини тубдан ислоҳ қилиш ва Давлат умуммиллий дастурини рўёбга чиқаришда сифат ва самарадорликни тадбиқ этиш биз педагог-ўқитувчилар зиммасига катта маъсулиятни юклайди. Барчамизнинг олдимизда турган асосий вазифа – ёш авлодни жисмонан соғлом, ақлий, ахлоқий ва маънавий жиҳатдан етук – баркамол этиб тарбиялаш бўлса, шу вазифани амалга оширишда санъатга иштиёқни кучайтириш орқали таълим муассасаларида мусиқа дарсларини ташкил этишда ўқитишнинг фаол усулларидан кенг ва ўринли фойдалана билишимиз зарур.

Ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг етакчи тенденцияларидан бири – инсон фаолиятининг ҳамма соҳалари шунингдек, таълим соҳасига инновацион, интерфаол усулларнинг кириб келиши ва янги педагогик технологиянинг қуйидаги имкониятларидан самарали фойдаланишга шароит яратиб беради:

- ҳар бир ёшларга таълим олиш имкониятини берадиган олий таълим тизими;
- билиш жараёнини ташкил этишни ўргатиш;
- таълимни ахборот-методик таъминлашнинг самарали тузилишини яратиш;
- қизиқарли фаол усулларни қўллаш ва хусусиятларидан фойдаланиш ҳамда уни қўллаш билиш.

Таълимнинг қизиқарли фаол усулидаги муаммоларни ечишга илмий ёндашув ўқувчиларнинг комплекс билим, малака, кўникмалари шахсий сифатларини шакллантирилиши орқали касбий вазифаларни самарали бажариш ва интерфаол усулларни таълим жараёнларида, жумладан умумтаълим мактабларида мусиқа фанини ўқитишда қўллаш мақсадга мувофиқдир.

Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти И.А. Каримов айтгандай: “Агар ўқувчилар эркин фикрлашни ўрганмаса, берилган таълим самараси паст бўлиши муқаррар. Албатта, билим керак. Аммо билим ўз йўлига, мустақил фикрлаш ҳам катта бойлиқдир.”

Юқорида айтилган масалаларни ҳал этиш асосида умумтаълим мактабларида мусиқа фанини ўқитишда янги педагогик технологиялардан унумли фойдаланиш даркор.

Янги педагогик технологиялар асосида таълимнинг қизиқарли фаол усулларини яратиш ва ундан фойдаланиш умумий ўрта таълимда давлат стандарти таълимнинг оптимал ташкил этилишини таъминлайди ва мазмунини белгилайди.

Умумий ўрта таълим мактабларида мусиқа фанини ўқитишда замонавий ва қизиқарли фаол усуллар асосида дарсларни ташкил этиш, бугунги кунда муҳим аҳамиятга эгадир.

Бунинг учун ўқитишда таълимнинг қизиқарли, фаол усуллари асосида педагогик жараёнларни ташкил этиш мақсадга мувофиқдир. Таълимнинг қизиқарли интерфаол усуллари: “Кичик ва катта гуруҳларда ишлаш”, “Гуруҳлар мунозараси”, “Ролли ўйинлар”, “Саҳна кўриниши”, “Ҳар ким ҳар кимга ўргатади”, “Заковат” ўйини, “Кроссвордлар ечиш”, “Тест синови ўтказиш”, “Хотиранинг синаб кўр”, “Сухбат-интервью” кабиларни қўллаш орқали мусиқа дарслари мазмунли ташкил этилади.

Мусиқа дарсларида таълим самарадорлигини ошириш учун янги усул ва йўлларни излаш, амалиётда қўллаш ҳар бир ўқитувчида ижодкорлик, янгиланиш, яратиш ҳиссиётини шакллантириш табиий ҳол бўлиши керак. айнан ўқитувчининг касбий компетентлиги ва креативлиги мана шунда намоён бўлади. Шуларни эътиборга олган ҳолда, таълимнинг интерфаол усуллари “Катта гуруҳларда ишлаш”, “Кичик гуруҳларда ишлаш”, “Гугурт донлари стратегияси”, “Синдикат” усулларидан фойдаланган ҳолда ўқувчи-ёшлар билимининг самарадорлигини ошириш мақсадга мувофиқ бўлади. Айниқса, умумий ўрта таълимдан кейинги поғонадаги касб-ҳунар коллежларидаги таълим жараёнларида юқоридаги усуллардан фойдаланиш орқали дарсда вужудга келадиган муаммоли вазиятларни ўзларида мавжуд бўлган билим, малака ва кўникмалар орқали ҳал қилишга, ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишдан иборатдир. Шунга кўра, янги дарсда вужудга келадиган муаммоли вазиятни ҳосил қилинади, гуруҳларга бўлиниб, турли топшириқлар берилади. Шундагина ўқувчилар фаол иштрок этувчи субъектга айланиши, эркин фикрлай олиши ва ўз фикрини айтиши ва уни ҳимоя қилиши, ташаббускор, мустақил бўла олиши мумкин. Бу хусусиятларнинг шаклланиши ўқувчининг руҳий ҳолатига ҳам таъсир этади ва таълимнинг интерфаол усуллари асосида ўқувчиларда ўзига хос фикрни айтиш, бошқалар фикрини муҳокама қилиш, хулосалаш, қийёслаш, инкор қилиш каби хусусиятлар таркиб топади. Умуман олганда, таълим жараёнларида қизиқарли фаол усуллардан фойдаланиш орқали дарсда ўқувчилар фаол иштирок этувчи ва билим олувчи, ўз билимини намойиш этувчи ва ҳатто билим берувчи бўлиши мумкин.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, биз таълим муассасаларида мусиқа дарсларини ташкил этишда интерфаол усулларни қўллаш орқали нафақат таълим жараёнининг, балки тарбия жараёнининг ҳам самарадорлигини таъминлаймиз.

Пулатов Фозилжон Усибжонович
(Қўқон, Ўзбекистон)

ТЕХНИКА РИСОВАНИЯ С НАТУРЫ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ ХУДОЖНИКА-ПЕДАГОГА

Учебное академическое рисование с природы ставить своей целью обучение не только правилам реалистического рисунка, но и художественному мастерству. Изобразительная деятельность в частности учебное рисование, как и всякая другая, требует определенных умений и навыков, от которых во многом зависит профессиональная подготовка художника-педагога в целом. Без необходимых технических навыков и совершенствования умений

рисования студент не в состоянии нарисовать тот или иной предмет. Определяя, важность учебного рисования и овладения технических навыков П.П. Чистяков писал: «Искусство не есть одна наука, искусство пользуется наукой, искусство должно уметь законы и знания применять к делу, на то оно и есть искусство - умение»¹⁰.

Знание основ изобразительной грамоты и в совершенстве владеть техникой рисунка дает будущему педагогу возможность правильно видеть, понимать законы строения форм природы, технически грамотно изображать на листе бумаги виденное.

Вопросами обучения реалистического искусства и техники рисования занимались выдающиеся художники – педагоги такие как, Альберти Леон Батиста, Ченнино Ченнини, Леонардо да Винчи, Альбрехт Дюрер, О.А. Кипренский и другие. Художники реалистического направления всегда большое значение придавали формированию технических навыков у своих учеников при создании учебного рисунка с натуры. Так, например, известный русский художник-педагог П.П. Чистяков говорил: «К большому сожалению, при хорошем замысле и выразительности часто приходится видеть грубовато-неумелое исполнение, а ведь это большой недостаток»¹¹. Свободно владеть языком искусства дает будущему педагогу всецело отдаваться творчеству, легко решать творческие задачи.

В академическом рисунке дело преподавания и обучения технике рисунка должно быть поставлено таким образом, чтобы каждый технический прием рассматривался как подсобная, дополнительная задача учебного рисунка. Каждый штрих, линия, которые наносятся на плоскость бумаги, должны помогать будущему педагогу, выразить и наглядно передать зрителю то, что он желает рассказать. Немаловажным является то, что техника рисунка должна быть подчинена разуму, сознательному осмысливанию всего процесса изображения. Именно сознание помогает художнику приобрести новый опыт в выполнении той или иной задачи.

Практическое освоение сложных движений никогда не происходит без осознания целей и задач, стоящих перед обучающимися, что уже указывает на неперенное участие сознания в этом процессе. В технике рисунка линия, штрих, тушевка имеет большое значение. Например, изображая гипсовые геометрические тела, студент должен почувствовать строение данного предмета, подчеркивать характер формы и технически правильно его заштриховать.

Техника владения рисовальными материалами также не должна сковывать творческого процесса молодого художника, он должен направлять все свое внимание на яркое, убедительное воспроизведение образа предмета. Для достижения своей цели, студент должен последовать следующим требованиям:

1. Первые упражнения проводить под руководством педагога, прислушиваться его указаниям.

2. Четко представлять себе, чего он должен добиться в результате технических приемов упражнений: тщательности, скорости и т. д.

¹⁰ П.П. Чистяков. Письма, записные книжки, воспоминания. - М., 1953. с. 127.

¹¹ Там же, с. 183.

3. После каждого отдельного упражнения студент должен знать его результаты, чувствовать свое продвижение, знать, чего он достиг и как недочеты или, ошибки ему остается преодолеть.

4. На развитие технических навыков влияет не только количество упражнений, но и распределение их во времени (выполнение длительных учебных постановок и зарисовок).

5. Не рекомендуется преодолевать одновременно две или несколько задач, а тем более весь цикл. Прежде чем приступать к упражнению в каком-либо сложном навыке, надо хорошо усвоить те элементы, из которых складывается данный технический прием.

В заключении следует отметить, что в развитии технических навыков, подготовки будущих художников педагогов большое значение имеет копирование рисунков старых мастеров. Изучая технику работы выдающиеся мастеров прошлого карандашом, углем, соусом, сангиной, студент расширяет свои творческие возможности.

Umarov Sanjar Sunnatovich, Zoxidova Ruksora Artikovna
(Samarqand, O'zbekiston)

INGLIZ TILI DARSLARIDA MATEMATIK O'YINLAR

Аннотация. В данной статье рассматривается использование математического игры и методы на уроках английского языка.

Ключевые слова: математическое игры и методы

THE PLAYS AND PAZZLES ON MATHS IN ENGLISH LESSONS

Abstract. This article aims at explaining and showing the means of usage of plays and puzzles on maths in english lessons.

Keywords: plays and pazzles on maths.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish "chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli qarorda ta'kidlab o'tilgan. Taraqqiyot borgan sari rivojlanib ta'limga bo'lgan e'tibor ham zamonaviylashib yangilanib bormoqda. Hozirgi kunda ko'p tilni bilish, unda muloqot qila olish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'pchilikka ayon. Chunki kun sayin ilmfan, texnika va texnologiyalar zamonaviylashib bormoqda. Bugungi kunda ingliz tilini o'qitish jarayonida interfaol metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Ingliz tili fanini o'qitishda matematika fanidagi qiziqarli misol va masalalardan foydalib o'tishimiz o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari yanada orttiradi. Matematik o'yin va boshqotirmalarni ingliz tili darslarida va darsdan tashqari o'tiladigan ingliz tili to'garaklarda foydalanish uchun kiritish lozim. Shu orqali o'quvchilarni matematika va ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi. Ingliz tili to'garagida matematik o'yin

va boshqotirmalardan foydalanish usullarini kiritishimiz bejiz emas. B. Paskal aytganidek "Matematika o'ta jiddiy fan bo'lib uni ozgina bo'lsa ham qiziqarli qilish imkoniyatlarni qo'ldan boy bermaslik lozim".

Quyida qiziqarli matematik o'yinlardan namunalar misol keltiramiz.

"What's your Number?"

Take a number. Double it. Add 9. Subtract 3. Divide by 2. Subtract the number you first had, in your mind. You can tell them that the answer is three. It will invariably be 3.

Number, please!

Select a number or use your age.

Then do the following:

Number selected	27
Multiply by 3	81
Add 1	82
Multiply by 3	246
Add original number	273
Strike off last digit	27

Bu mashq ingliz tili darsini matematika fani bilan bog'lashda yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchi qo'shish - add, ko'paytirish - multiply, bo'lish - divide kabilarni bemalol qo'llash mumkin.

Magic addition.

Here is a trick to play on your friend. Ask someone to write down in a line all the figures from one to nine but leaving out the figure 8, like these:

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 9.

Then say that this is a test of good writing and ask which figure is written badly.

Suppose the answer is the figure 2. Then tell your friend to multiply the whole line by 18, like this:

$$\begin{array}{r}
 \\
 \\
 \times \\
 \hline
 \\
 \\
 + \\
 \hline
 \\
 \\
 \hline
 1 \\
 \hline
 2
 \end{array}$$

As you see, the answer is all twos. Then tell your friend that he has had a lot of practice in writing the figure 2 and ought to be able to write it nicely.

The secret is privately to multiply whatever number is given by 9. In the example given $2 \times 9 = 18$.

Suppose the number given is 5, then your friend will have to multiply the line by 45, and the answer will be all fives.

Bunday matematik o'yin va boshqotirmalar muloqot materialini o'zlashtirishga jamoa, guruh va juft bo'lib tashkil qilishni ko'zda tutib mashg'ulot mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu interfaol o'yinlar o'quvchilarning dars davomida o'quv materialiga befarq bo'lmaslikka mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

Утемисов Аскарбек Оразымбетович
(Нукус, Узбекистон)

ЭЛЕКТРОН ДАРСЛИК ЗАМОНАВИЙ ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЭНГ АСОСИЙ ЭЛЕМЕНТИ

Электрон дарслик замонавий ўқув жараёнининг энг асосий элементи бўлиб, у ўқув фани ёки маълум бир бўлимни мустақил ўрганишни таъминловчи ва одатдаги дарслик, маълумотнома, машқлар тўплами, лаборатория практикуми хусусиятларини бирлаштирувчи дастурий-услубий мажмуадир. Электрон дарслик аъъанавий дарсликларнинг альтернатив варианты бўлмасдан, балки унинг тўлдирувчиси бўлиб, уларда аъъанавий дарсликларнинг барча афзалликларини сақлаб қолиш билан бир қаторда, компьютерлар воситасида таъминланадиган замонавий ахборот технологиялари, мультимедиа имкониятларидан тўлиқ фойдаланиш учун шарт-шароит яратилади. Электрон дарсликлар яратиш ишларини янада ривожлантириш учун қуйидагиларни амалга ошириш зарур:

◇ электрон дарсликлар яратиш учун илмий-ғоявий, услубий-дидактик, психологик–педагогик, санитария-гигиеник талабларни ишлаб чиқиш;

◇ электрон дарсликлардан тўғри ва рационал фойдаланиш мақсадида уларни тайёрлаш бўйича махсус дастурларни ишлаб чиқиш;

◇ электрон дарсликлар ва виртуал стендларни яратиш бўйича халқаро тажрибаларни умумлаштириш;

Асримизни глобаллаштириш ва ахборотлаштириш асри деб юритилмоқда. Дарҳақиқат ҳар томонлама ривожланаётган жамият тараққиётини ахборот технологияларисиз, айниқса компьютерларсиз тасаввур этиш мушкул. Ахборот-коммуникация технологиялари соҳаси инсон фаолиятининг юқори суръатларда, шиддат билан ривожланиб бораётган алоҳида соҳаларидан ҳисобланади. Электрон ҳисоблаш машиналарининг биринчи авлодидан иккинчи авлодига ўтиш даври йиллар билан ўлчанган бўлса, эндиликда бир неча ойлар давомида уларнинг янги авлодлари, турлари яратилмоқда. Ҳозир шундай давр келдики, компьютерлар ўзининг янги авлодларини яратишда ва лойиҳалашда ўзи ҳам бевосита иштирок этиб, ушбу тараққиёт жараёнида муҳим омил бўлиб қолмоқда. Ахборот-коммуникация технологияларига нисбатан талаб ва эҳтиёж интернетнинг яратилиши билан янада ортди. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастурининг ҳозирги кунда амалга оширилаётган 2-босқичи бўйича белгиланган асосий вазифалардан бири – таълим сифатини оширишдир. Айнан мана шу вазифани таълим тизимига замонавий ахборот-коммуникация технологиялари тадбиқ этмасдан бажаришни кўз олдига келтириб бўлмайди. Бунга асосий сабаб бўлувчи омилларни кўриб чиқайлик [3, 4].

1. Талабаларга етказилиши лозим бўлган ахборотлар оқиминининг муттасил ортиб бораётганлиги. Кишилик жамияти шакллана бошлаган вақтдан бошлаб, то 20-аср бошланишигача бўлган даврда тўпланган ахборотлар ҳажми 1980 йилгача, яъни 80 йил ичида иккиланган. Сўнгра 1990 йилгача, яъни 10 йил ичида ахборотлар ҳажми яна иккиланган. Эндиликда эса ахборотлар ҳажми ҳар 2 - 2,5 йилда иккиланиши кузатилмоқда. Табиийки, ахборотлар ва улар билан боғлиқ бўлган маълумотлар ҳажмининг ортиб

бориши ўқув машғулотларида ҳам ўз инъикосини топиши лозим. Лекин ҳар 2-2,5 йилда ўқув машғулотларига ажратилган академик соатларни икки баравар ошириб бориб бўлмайдику. Демак, ўқув материалларини тайёрлашда талабаларга тавсия этишда янгича услублардан ва ёндошувлардан фойдаланишимиз лозим бўлади. Айнан мана шунда Ахборот-коммуникация технологиялар қўл келувчи педагогик восита сифатларини намоён этиши мумкин. Интернет орқали талабалар ўтирган жойида, нафақат ўзи ўқиётган таълим муассасасидаги, балки дунёнинг турли чеккаларидаги таълим ресурсларидан фойдаланиш, ўқув базаларидаги ва кутубхоналаридаги ўқув материаллари билан танишиш имкониятига эга бўлиши мумкин.

2. Ўқув машғулотларини ўтиш ва ўзлаштириш самарадорлигини ошириш. Ахборот-коммуникация технологиялари ўқув машғулотларни ташкил этишда, талабаларга тавсия этишда ва талабаларнинг тавсия этилаётган ўқув материалларини тўлиқ ўзлаштиришларида қўл келувчи восита бўлиб, ўқув материалларини тингловчиларга тушунарли ва жонли, қисқа муддатда кўп маълумотларни етказиб бериш каби юқори самарали педагогик-дидактик хусусиятлари билан ажралиб туради.

3. Ахборот маданиятини шакллантириш. Ахборот-коммуникация технологияларни таълим жараёнларига тадбиқ этилиши талабаларнинг, нафақат талабаларнинг, балки педагогларнинг ҳам ахборот маданияти давр билан ҳамнафас тарзда шаклланишига муносиб замин яратади. Инчунун, ахборот маданияти ахборотлаштирилган жамиятни яратишда муҳим аҳамиятга эга бўлган компонентлардан ҳисобланади.

4. Таълим жараёнларининг ижобий кўрсаткичларини кескин ортиши. Баъзан айрим педагогларимизнинг талабаларнинг дарсга қатнашишларидан, билим доираларидан «нолиб қолишларини» гувоҳи бўламиз. Албатта, ҳамма талабаларнинг ўзлаштириш кўрсаткичлари, салоҳиятлари бир хил эмас. Бунинг сабаблари ҳам турлича. Лекин бир нарсани эътироф этиб ўтишимиз ҳам фарз, ҳам қарз: ҳозирда маданий турмуш тарзимиз, ҳаётимиз бундан 15-20 йиллар олдингисидан жуда катта фарқ қилади. Замонавий техника воситалари кундалик турмушимизда мустақкам ўрин эгаллаган. Буларга телевидение, радио, видео, компьютер ўйинлари ва шу кабилар киради. Аксарият ҳолларда мана шу воситалар талабаларимизнинг кўшимча ўқув машғулотлари билан шуғулланишларига ажратилиши лозим вақтни «олиб қўядилар», яъни биз – педагогларга рақобатчи сифатида намоён бўладилар. Айнан мана шу техникавий воситаларни, замонавий технологияларни ўзимизнинг педагогик фаолиятимизда фойдалана билишимиз, ёки бошқача қилиб айтганда ўзимизга «ишлата билишимиз» ўқув жараёнларини ҳаммага қизиқарли, ўзига жалб этувчи тарзда ташкил этиш имкониятини келтириб чиқаради. Табиийки, бу ҳол талабаларнинг ўзлаштириш кўрсаткичларига ижобий таъсир этмай қолмайди. Бу эса ўз навбатида, иқтиборли талабалар билан ишлашдаги имкониятларни оширади. Эътироф этиб ўтишимиз керакки, кўпинча иқтидорли талабалар билан ишлаш ўрнига, аксарият вақтимиз ўзлаштириши паст бўлган талабалар билан кўшимча ишлашга сарфланаётир. Ёки бошқача қилиб изоҳлаганда, «сувни лойқадан тозалашга кўпроқ куч сарфлаб, тоза сув билан ишлашга» камроқ аҳамият берилиш ҳоллари ҳам мавжуд. Ахборот-коммуникация технологияларни ўқув жараёнларига тадбиқ этилиши ва улардан ўринли

ҳамда самарали фойдаланиш, ўзлаштириш кўрсаткичлари паст бўлган талабаларни юқориқоғ погоналарга олиб чиқиш, иқтидорли талабалар билан эса, янада самаралироқ шуғулланиш имкониятларини келтириб чиқаради.

Кадрлар тайёрлаш Миллий дастурининг иккинчи босқичи бўйича белгиланган вазифалардан келиб чиқиб, ҳамда таълим тизимини ахборотлаштириш борасида олий ва ўрта махсус таълим вазирлигида Ахборот-коммуникация технологиялар таълим жараёнларига тадбиқ этиш борасида сезиларли ютуқларга эришилди. Шулардан айримларини келтириб ўтиш жоиздир:

– Олий ўқув юртларининг барчасида интернетга чиқиш имконияти яратилди;

– Илмий ишлар бўйича проректорлар ўрнига илмий ишлар ва ахборот технологиялари бўйича проректорлар, ахборот-коммуникация технологиялари бўйича таянч олий ўқув юртларида эса алоҳида ахборот технологиялари бўйича проректорлар, ҳамда декан муовинлари лавозими ташкил этилди;

– Таълим муассасаларини компьютерлаштириш кўрсаткичларини оширишга эътиборучайтирилди ва ҳозирга келиб олий ўқув юртлари бўйича ўртача кўрсаткич ҳар 100 талабага 5,62 бўлишига эришилди (Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 6 июндаги 200-сонли қарори билан тасдиқланган Дастурга асосан 2003 йилнинг охиригача мазкур кўрсаткич 4,7 бўлишига эришиш режалаштирилган эди).

– Маҳаллий мутахассисларнинг саъйи - ҳаракатлари билан четэл андозаларига нафақат жавоб бера оладиган, балки баъзи кўрсаткичлари билан бирмунча илғор бўлган E-Saboq – электрон дарсликлар яратиш платформаси (Тошкент давлат техника университети) ва AILS – автоматлаштирилган кутубхона тизими яратилди (Ўзбекистон Миллий университети). Ҳозирда E-Saboq – электрон дарсликлар яратиш платформасида 30 га яқин электрон курслар, AILS – автоматлаштирилган кутубхона тизимининг ўқув адабиётлари портали базасида эса 2500 га яқин маъруза матнлари ва бошқа ўқув адабиётлари жойлаштирилган бўлиб, улардан масофавий тарзда фойдаланиш ҳам мумкин. Ушбу тизимлар интернетда фаол ишлаб турибди;

– Таълим муассасаларининг Интернет орқали керакли маълумотларни олишларида бир қатор қулайликлар яратиб берувчи E-Collektor тизими яратилди (Тошкент давлат техника университети) ва унга барча олий ўқув юрти учун имтиёзли фойдаланиш имкониятлари яратиб берилди;

– Республика «Устоз» (эндиликда «Истеъдод») жамғармаси билан биргаликда «Ёзги мактаб» рункида, Ахборот-коммуникация технологиялар ва мазкур технологиялар асосида масофавий ўқитишни ташкил этиш йўналишида доимий ишловчи, минтақавий семинар-тренинг курслари ташкил этилди ва ҳозирга қадар мазкур курсларда олий ўқув юртларининг ва касб-ҳунар коллежлари ва академик лицейларнинг 800дан ортиқ педагог кадрлари малака ошириб чиқдилар.

– Вазирлик томонидан вазирлик тасарруфидаги барча (33 та) малака ошириш институтлари, марказлари ва факультетлари учун энг янги компьютерлар (P IV) билан жиҳозланган компьютер синфлари ташкил этиб берилди. Бундан ташқари кутубхоналар алоҳида замонавий компьютерлар

билан қўшимча таъминланди. – олий ўқув юртларининг Веб-сайтларини яратиш ва улардан таълим ресурсларини ривожлантиришда самарали фойдаланиш бўйича махсус кўрсатмалар ва тавсиялар ишлаб чиқилди ва ҳозирга келиб аксарият олий ўқув юртлари ўз **Веб-сайтларини** фаоллаштиришга эришдилар.

Албатта, ушбу эришилган ютуқлар рўйхатини яна давом эттириш мумкин. Лекин, эътиборингизни ҳозирда мавжуд айрим камчиликларга ва муаммоларга қаратмоқчимиз:

1. Таълим сифатини оширишда алоҳида аҳамиятга эга бўлган омиллардан бири – педагогнинг ўзини юқори малакага эга бўлишидир. Бунда у замонавий янгиликлардан ва Ахборот-коммуникация технологияларни таълим жараёнларида самарали қўллашдан воқиф бўлиши, бу борада етарли тажрибаларга эга ўлиши ўта муҳим саналади. Ушбу нақлга ҳамма профессор-ўқитувчиларимиз ҳам жиддий ёндошмоқдалар дейишимиз қийин. Айрим педагог кадрларимиз компьютерлар билан ишлаш ёшларнинг иши деб қараса, айримлари таълим муассасаси томонидан махсус курслар ташкил этилишини кутиб ўтирмоқдалар. Албатта, таълим муассасалари томонидан компьютер саводхонлигини ошириш ва бу борада қайта тайёрловдан ўтиш мақсадида махсус курслар ташкил этмоқдалар. Лекин педагогнинг ўзидан ҳам ташаббус, жиддий ёндошув ва саъйи-ҳаракат лозимдир.

2. Ўқув фанлари бўйича электрон дарсликларни яратиш аксарият ҳолларда ўқув фанини ўқитувчи биргина педагогнинг «ташвиши» бўлиб қолмоқда. Чет эл тажрибасидан келиб чиққан ҳолда, яқка тартибдаги иш усулидан доимий ишловчи ижодий гуруҳлар усулига ўтиш энг самарали ҳисобланади. Бунинг натижасида сифатли ва узлуксиз янгиланиб турувчи, яъни маълумотлари эскириб қолмайдиган («қаримайдиган») электрон дарсликка эга бўлиш мумкин. Яхши ва сифатли яратилган, маълумотлари доимий равишда янгиланиб турадиган электрон дарсликлар гармоник таъсирга эга бўлади, яъни талабалар ҳам, фанни ўтувчи педагог ҳам янги маълумотларга эга бўладилар. Бунда бири таълим олса, иккинчиси малакасини оширади.

3. Таълим жараёнларига кенг жорий этишда, хусусан электрон дарсликлар яратиш, ўқув машҳулотларини компьютерлаштирилган ўқув дастурлари асосида олиб бориш, муайян фанларни, айниқса техника соҳасидаги йўналиш фанларини чет тилида олиб бориш борасида илғор натижаларга эришган профессор-ўқитувчиларни моддий рағбатлантириб борилиши назардан четда ҳоллари ҳам кузатилмоқда. Ушбу йўналишлар нисбатан янгилиги, педагогдан қўшимча изланиш, вақт ва меҳнат талаб этишини унутмаслик лозим. Қолаверса, бу ишнинг сифатига ҳам салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Бу мақсадда вазирликнинг махсус буйруғи ҳам қабул қилингандир (2002 йил 25 январдаги 23-сонли буйруқ).[2,3]

4. Олий ўқув юртларида локал тармоқларни шакллантириш ва ривожлантириш масалалари энг долзарб масалалардан бўлиши лозим. Чунки таълим муассасасининг ўзини ҳудудда коммуникация муаммолари ҳал этилиши мумкин. Лекин, юқорида компьютер мисолида айтганимиз каби, компьютер тармоғи ҳам ишлаши, ундан педагоглар, мутахассислар ва албатта талабалар самарали фойдалана олишлари мумкин бўлиши керак. Локал тармоқлар албатта кутубхона ресурслари ҳам ўз таркибига олиши лозим.

Таълим тизимини ахборотлаштириш мақсадида ҳар бир таълим муассасасида куйидаги асосий вазифалар босқичма-босқич ва кетма-кет бажарилишини таъминлашимиз лозим бўлади:

– замонавий ахборот-коммуникация технологиялар бўйича мутахассислар тайёрлаш даражасини ошириш;

– ўқув-таълим жараёнларида ахборот-коммуникация технологиялар кенг жорий этиш ва улардан самаралироқ фойдаланишни таъминловчи моддий-техника базасини яхшилаш;

– таълим сифатини оширишга қаратилган инновацион технологияларни ўқитиш жараёнларида самарали қўллаш;

– ўқув жараёнларини бошқариш ва ахборот таъминотини йўлга қўйишга қаратилган замонавий технологияларни жорий этиш.

– Ушбу мақсадларга эришиш учун куйидаги йўналишлардаги олиб борилаётган фаолиятни кучайтириш керак бўлади:

– педагог кадрларни ахборот-коммуникация технологиялар соҳасида малака ошириш ва қайта тайёрлашда такомиллаштириш;

– таълим муассасасининг ахборот инфратузилмасини ривожлантириш ва маҳаллий, ҳамда халқаро таълим ресурсларидан кенг ва самарали фойдаланишни таъминлаш;

– Ҳар бир ўқув фанининг алоҳида ва ўзига хос бўлган хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, юқорида келтириб ўтилгандек, гармоник тарзда ўтилишини таъминловчи электрон дарсликлар, виртуал стендлар ва тажриба ишлари яратишни кучайтириш;

– интернет ресурсларидан самарали фойдаланишга эришиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар ишлаб чиқиш;

– талабаларга қўшимча таълим бериш, қолаверса педагог кадрлар ва мутахассисларни малакасини оширишга қаратилган телевидение орқали масофавий ўқитиш, интернет орқали имтиёзли ва бепул ўқитиладиган очик (online) курсларидан самарали фойдаланишни йўлга қўйиш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Н.Х. Авляякулов «Замонавий ўқитиш технологиялари» Т. 2001 йил.
2. Л.В. Голиш «Фаол ўқитиш усуллари: мазмун, танлаш ва амалга ошириш» Экспресс қўлланма Т. ТАСИС, 2001 йил. -68 бет.
3. О. Ивашев ва бошқалар. 9-синфда Алгебра ва анализ асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма. Тошкент. Ўқт. 1987

Шерзод Хайитмурадов Сагдуллаевич
(Самарканд, Узбекистан)

РОЛЬ УРОВНЕВОЙ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ В ЛИЧНОСТНО ОРИЕНТИРОВАННОМ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ

Аннотация. Бу мақолада математикани шахсга йўналтирилган ўқитишда савияли табақалаштириш технологияси баён этилади. Бундан ташқари, таълимни вариативлиги ҳамда ўқувчиларнинг шахсга

Ўналтирилган ўқитиш шароитларида тарбиялаш масалаларини амалга ошириш бўйича қатор таклифлар баён этилган.

Summary. *In the essence technology on level differentiations in the lichnostno -focused training to the mathematician. Besides, are stated a number of offers on realization of problems of education in the conditions of variability of formation, and also the lichnostno-focused training of pupils.*

Национальная Программа по подготовке кадров в Республике Узбекистан [1] предусматривает гуманизацию системы образования, её нацеленность на личность каждого обучаемого. Это может быть достигнуто посредством дифференциации и индивидуализации учебно-воспитательной работы во всех учебных заведениях на всех этапах воспитания и обучения учащихся и студентов.

Под дифференциацией и индивидуализацией учебно-воспитательной работы во всех учебных заведениях на всех этапах воспитания, развития и обучения учащихся и студентов мы понимаем такую систему развития, воспитания, обучения и образования, при которой каждый обучаемый, овладевая некоторым минимумом общего развития, воспитания и образования, являющимся общезначимым и обеспечивающим возможность адаптации в постоянно изменяющихся жизненных условиях, получать право и гарантированную возможность уделять преимущественную внимание тем направлениям мировоззрения и наукознания, которые в наибольшей степени отвечают его склонностям.

Ориентация на личность каждого обучающегося объективно приводит к требованию того, чтобы дифференциация и индивидуализация учебно-воспитательной работы по математике учитывала потребности и склонности каждого обучаемого. При этом различают два основных вида дифференциации учебно-воспитательной работы по математике.:

1) уровневая дифференциация; 2) профильная дифференциация.

Уровневая дифференциация выражается в том, что обучаясь в одном классе или одной академической группе по одной учебной программе и одним учебнике обучаемые могут усваивать материал на различных уровнях строгости и сложности.

Определяющим при этом является уровень обязательной подготовки. Его достижение свидетельствует о выполнении обучаемым минимально необходимого требования к содержанию учебной дисциплины. На его основе формируются более высокие уровни овладения материалом.

Профильная дифференциация предполагает обучение разных групп учащихся и студентов по программам, отличающихся направленностью и глубиной изложения материала, объемом сведений и даже номенклатурой рассматриваемых вопросов. Разновидностью профильного обучения является углубленное изучение математики, обеспечивающее продвинутый уровень математической подготовки и позволяющее обучаемым приобрести умения и навыки решения разнообразных задач повышенной сложности, в том числе и прикладных задач, связанных с будущей профессиональной деятельностью обучаемых.

Оба вида дифференциации могут существовать и взаимно дополнять друг друга на всех ступенях математического образования, хотя и в разном удельном весе.

В основе уровневой дифференциации обучения лежит планирование результатов обучения; выделение уровня обязательной подготовки и формирование на этой основе повышенных уровней овладения материалом [2, 3]. Сообразуясь с ними и учитывая свои способности интересы, потребности, обучаемый получает возможность выбирать объем и глубину усвоения учебного материала, варьировать свою учебную нагрузку.

Достижение обязательных результатов обучения становится тем объективным критерием, на основе которого может видоизменяться ближайшая цель каждого учащегося и перестраиваться содержание его работы: либо его усилия направляются на овладение материалом на более высоких уровнях, либо продолжается работа по формированию важнейших опорных знаний и умений.

Благодаря такому подходу дифференцированная работа получает прочный фундамент, приобретает реальный, осязаемый и для учителя и для ученика смысл.

Заметно увеличиваются возможности для работы с сильными студентами, поскольку преподаватель уже не должен спрашивать данный на занятии материал в полном объеме со всех обучаемых. Кроме того, отпадает необходимость постоянно разгружать программу, и снижать общий уровень требований, оглядываясь на слабых обучающихся.

При этом можно выделить ряд важных условий, выполнение которых необходимо для успешного и эффективного осуществления уровневой дифференциации [4, 5].

1. Выделенные уровни усвоения материала и обязательные результаты обучения должны быть открыты для обучаемых.

2. Наличие определенных «ножниц» между уровнем требований и уровнем обучения.

3. Добровольность в выборе уровня усвоения и отчетности.

4. Содержание контроля и оценка должны отражать принятый уровневый подход.

Уровневая дифференциация может осуществляться в устной форме (ее выбор во многом зависит от методов и приемов работы учителя, особенностей класса, академической группы, возраста обучаемых и т.д.). В качестве одной из основных предлагается формирование мобильных групп, деление на которые происходит на основе критерия достижения уровня обязательной подготовки.

Группы могут формироваться для работы и на обычных уроках и на дополнительных занятиях. Отметим, что в процессе самостоятельной деятельности учащихся и студентов не стоит ограничиваться лишь дифференцированным подходом, необходимо варьировать индивидуальную и фронтальную формы работы в зависимости от этапа, изучения темы, от потребности обучаемого в помощи преподавателя.

Правильное решение вопроса заключается во всесторонней дифференциации обучения математике в старшем звене, введении курсов разного объема и уровня сложности.

В зависимости от той роли, которую математика может играть в образовании человека можно, выделить два типа таких курсов [6, 7].

- Курс общекультурной ориентации (назовем его курсом **A**), который рассчитан на учащихся, рассматривающих математику только как элемент общего образования и не предполагающих использовать ее непосредственно в будущей профессиональной деятельности.

- Курсы повышенного типа, обеспечивающие изучение математики и ее применение в качестве элемента профессиональной подготовки.

Можно выделить два основных курса повышенного типа:

Курс B, предназначенный для учащихся, выбравших для себя те области деятельности, где математика играет роль аппарата специфического средства для изучения закономерностей окружающего мира.

Курс C, ориентированный на учащихся, для которых собственно математика является одной из основных целей познания.

Таким образом, для старшей ступени системы среднего образования может быть целесообразно наличие трех основных математических курсов **A**, **B**, и **C**. Они призваны предоставить каждому обучаемому возможность изучать математику на уровне соответствующем его интересам, способностям и склонностям. Этим курсов в целом достаточно для обучения математике по профилю любого направления (по нашему мнению!...).

Программу по каждому из курсов **A**, **B** и **C**, видимо, целесообразно строить по «модульному принципу». В ней должны быть две части:

- инвариантная, обязательная для изучения всеми, кто выбрал этот курс;

- вариантная, состоящая из разделов, из которых преподаватель может выбрать материал, дополняющий основную часть курса.

Методика дифференцированной работы на уроке или занятии в группе.

Итак в классе или академической группе имеется три группы учащихся

I этап. Дифференциация домашней работы.

Считалкиным можно предложить задания, соответствующие обязательным результатам обучения.

Решалкиным можно дать такие же задания, к которым добавляется более сложная задача.

Смекалкиным можно дать задание из учебника, дополнительное задание из различных учебных пособий.

II этап. Учет знаний учащихся на занятиях.

На этом этапе в классе или академической группе можно выделить консультантов - ребят из группы Смекалкиных. Сначала преподаватель может проверить их работы, затем консультанты помогают преподавателю проверять работы учащихся остальных

На этом этапе в классе или академической группе можно выделить консультантов-ребят из группы.

Смекалкиных: сначала преподаватель может проверить их работы, затем консультанты помогают преподавателю проверять работы учащихся остальных групп.

III этап. Организация базового повторения.

Преподаватель ликвидирует выявленные пробелы в знаниях учащихся теоретического материала, разъясняет недочеты и ошибки, допущенные учащимися в самостоятельных и контрольных работах. Планируемый для повторения материал записывается на доске. Задания каждой группе предлагаются разные.

Считалкиным - «Выберите из данных ответов верный»

Исправьте ошибку в»

Решалкиным - «Назовите правило, по которому выполняется действие...», «Закончите решение...»

Смекалкиным - «Поясните причину допущенной ошибки», «Сформулируйте определения понятий, использующихся в данной задаче».

IV этап. Проверка усвоения пройденного материала

Она включает самоконтроль и работу консультантов.

V этап. Изучение нового материала.

Дифференциация реализуется по отношению ко всем учащимся уже со второго занятия по новой теме.

Смекалкины переходят от обязательных заданий, к творческим.

Решалкины сосредотачиваются на упражнениях требующих хорошего понимания основных положений темы.

Считалкины снова и снова возвращаются к основным моментам.

VI этап. Контроль знаний

(проведение самостоятельных и контрольных работ)

Считалкины выполняют задания по образцу.

Решалкины выделяют главное в решении.

Смекалкины работают с дополнительным материалом.

Подбор заданий

Приведем пример дифференцированной самостоятельной работы по алгебре, в которой учащимся трех групп предлагаются различные задания.

Тема: Преобразование целых выражений.

Задания

Считалкиным:

1. Упростите выражение: а) $2c(1+c)-(c-2)(c+4)$; б) $(y+2)^2-2y(y-2)$;
в) $30x+3(x-5)^2$; г) $(b^2+2b)^2-b^2(b-l)(b+l)+2b(3-2b)$.

Решалкиным:

1. Разложите на множители: $4a-a^3$; $ax^2+2ax+a$; $16-\frac{1}{81}y^4$; $a+a^2-b-b^2$;

2. Докажите, что выражение $c^2-2c+12$ может принимать только положительные значения

Смекалкиным:

1. Докажите, что при любом целом «n» значение выражения $(2n-3)^2-(4n-l)(n+6)$ кратно 5.

2. Чему равно значение выражения: $a(a+2)+c(c-2a)-2a$ при $a-c=7$?

3. Найдите наименьшее значение выражения: $4x^2-4x+11$.

Как учесть познавательные интересы учащихся

Желательно, чтобы преподаватель уважительно относился к любому высказыванию учащегося относительно содержания темы. Надо не только

глубоко продумывать материал, который будет сообщен на занятии, но и знать, как увязать его с интересами и субъективным опытом каждого учащегося в отдельности.

Тем учащимся, кто интересуется историей, можно дать творческие задания, связанные с историей открытия математических фактов. Так, при изучении теоремы Пифагора можно предложить соответствующим учащимся подготовить сообщения на темы «Пифагор и его школа», «Теорема Пифагора и различные способы ее доказательства». Учащимся, склонным к естественным наукам, можно дать задачи, решение которых требует дополнительных знаний из области физики, механики, химии, биологии и других наук. Например, такую: «Удар от падения камня, брошенного в колодезь глубиной 13 м, был услышан через 3 с. Определить наибольшую скорость падения камня».

Учащимся, интересующимся экономикой, можно предложить следующую задачу: «Неизвестный капитал, положенный в банк под простой процент, через 5 лет оказался равным 11200 рублей. Найдите первоначальный капитал процентную ставку, если известно, что она составляет одну тысячную долю капитала».

Будущее нашего общества за стилем преподавания в основе которого - выявления потребностей учащихся и их удовлетворение, диалог с воспитуемыми, гуманная дифференциация и индивидуализация обучения. Идти к учащемуся, идти от учащегося, и вновь возвращаться, в сущности, не уходя от него, возвращаться к прежнему учащемуся и одновременно к другому - основа человеческого образования.

ЛИТЕРАТУРА

1. Национальная программа по подготовке кадров в Республике Узбекистан. Т.: Шарк, 2001. Нормативные материалы высшего образования, с. 18-52
2. Гнеденко Б.В. Математика и математическое образование в современном мире. М.: Просвещение, 1985, 203 с.
3. Кудрявцев Л.Д. Современная математика и её преподавание. - М.: Наука, 1980, 92 с.
4. Злоцкий Г.В. Организация самостоятельной творческой учебной деятельности школьников на уроках математики с помощью системы дидактических материалов с печатной основой (ДМПО), Самарканд, СамГУ, 1991 г.;
5. Злоцкий Г.В. Научно-педагогические основы формирования у студентов математиков университетов готовности к профессионально-педагогической деятельности, Самарканд, СамГУ, 1991 г.;
6. Злоцкий Г.В. Карточки-задания при обучении математике. Москва, Просвещение, 1992 г.;
7. Злоцкий Г.В. К проблеме поиска новых активных методов обучения математике и критериев оценки качества знаний студентов университетов академических лицеев и профессиональных колледжей Ташкент, Халк таълими, 2005 г., № 2.

Эргашев Эминжон Алиевич
(Қўқон, Ўзбекистон)

ЁШ АВЛОДНИ ЖИНСИЙ ТАРБИЯЛАШДА ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЁНДАШУВ МАСАЛАЛАРИ

Маълумки, жинсий тарбия педагогика ва психологиянинг мураккаб соҳаларидан бири. Жинсий тарбия масаласида педагогик ва психологик адабиётларда ва тарбия амалиётида жуда кўп, шу жумладан, бир-бирига зид келадиган фикрлар мавжуд бўлгани билан алоҳида аниқ педагогик-психологик таклифлар кам. Ҳозирги шахс эркинлиги даврида жинсий муносабатлар ва уларга қарашда катта ўзгаришлар содир бўлмоқда.

Кейинги чорак асрда одамларнинг ахлоқий онгидаги ўзига хос тарихий ривожланиши никоҳгача жинсий муносабатларни алоҳида кўринишига олиб келди. Бу эса жинсий тарбиянинг педагогик-психологик асосларига янгича ёндошувларни туғдирди. Маълумотларга қараганда, никоҳгача жинсий муносабатда бўлиш кейинги сўнгги 10 йил ичида 24 % дан 39 %гача ўсган. Ёшларнинг айрим гуруҳи билан ўтказилган савол-жавобларда “никоҳсиз фарзанд кўриш шармандалик эмасми?” деган саволга 13,6 % қизлар “уят эмас”, деб жавоб берган бўлишса, 20 % қизлар уни қўллаб-қувватлаганлар. Ўтказилган тадқиқотларнинг кўрсатишича, кейинги 4-6 йил ичида 18 ёшга етмаган қизларда никоҳгача жинсий алоқада бўлиш ҳоллари кўпайган. Шу нарсани унутмаслик керакки, ҳар қандай енгил табиатли никоҳ ҳам ҳуқуқий асосга эгадир. Шу сабабли никоҳ ва оила муносабатларига енгил қараб бўлмайди. Ўзбекистонда ўсмирларнинг жинсий тарбияси, балоғат ва майлларини ўрганишга катта эътибор берилаётган бўлсада, аммо бу ҳусусда мукамал тавсия ва кўрсатмалар етарли эмас. Ҳозирги пайтда жаҳон бўйлаб жинсий муносабатлардаги ривожланиш таъсири ёшларни жумладан, эндигина жинсий балоғатга етаётган ўсмирлар тарбиясига жиддий таъсир кўрсатмоқда. Ота-оналар ва болаларнинг ёш чехрасидаги ўзгаришлар, маиший турмушда юз бераётган, шахс эркинлиги ва оммавий ахборот воситалари, интернет сайтлари болаларнинг жинсий тарбиясида янгича мураккабликларни келтириб чиқармоқда. А.С. Макаренконинг таъкидлаб кўрсатишича, одам хоҳ ижтимоий ҳаётида, хоҳ жинсий ҳаётида бўлсин ўзини жамият аъзоси эканлигини, ўз мамлакати фуқароси, жамият ва миллат вакили эканлигини унутмаслиги керак. Жинсий тарбия, тарбиянинг бошқа шакл ва усуллари билан ўзаро боғлиқ ҳолда олиб борилсагина, яхши самара бериши мумкин. Болаларни жинсий тарбиялашда қўйидаги тавсияларга эътиборни қаратиш керак:

- болаларни шундай тарбиялаш керакки, улар ўсиб-улғайган ларида муҳаббатга чуқур ва жиддий муносабатда бўла олишсин;

- болаларга жинсий тарбия беришда уларнинг келажақдаги севги-муҳаббат ва оилга садоқатларини тарбиялаш керак. Болага ҳали уни ёшлигидан бошлаб, жинсий ҳаётнинг ҳамма сирларини таништириш шарт эмас, балки бу ҳавфлидир;

- жинсий тарбияда жуда эҳтиёткор, вазмин бўлиш, енгилтакликка йўл қўймаслик керак;

- шуни назарда тутиш керакки, боланинг илк ёшлигида жинсий масалага қизиқиши кам бўлади. Қизиқиш уни балоғатга етиши билан кучаяди. Ҳар бир ўсмир ёки қиз келажақда фарзандли бўлиш истаги билан яшайди ва

унинг сирларини билишга интилади. Шунинг учун бу сирларни билиб олишига ҳалақит бермаслик керак;

- жинсий тарбияни олиб боришда, болаларни андишасиз, беҳаё, шарм-ҳаёсиз, дангал фикр юритадиган даражадан эҳтиёт бўлиш керак;

- жинсий тарбия болада севги-муҳаббатдан иборат олий туйғуни шаклланишига хизмат қиладиган бўлсин, токи болада келажакдаги умр йўлдоши билан бир тан бир жон бўлиб яшаш ҳиссини туғдириш керак.

Оилада тўғри кун тартиби ўрнатилса, у ҳам жинсий тарбия соҳасида катта фойда беради. Ёшлигидан бошлаб оқилона тарбияга ўрганган бола масъулиятсиз ва саёқ ҳаётга ўрганмайди. Қиз ва ўғил болалар ўрганган яхши одатларини эр ёки хотин бўлганларида ҳам сақлаб қолади.

Жинсий тарбиянинг яна бир муҳим шarti - болани иш билан банд қилишдир. Чунки бажарилган иш натижаларидан ҳузур қилиш, келгусидаги вазифаларни дилдан ўтказиш бола ҳаётининг мазмунли бўлишига олиб келади. Бола шахсининг шаклланишида жамоанинг ролига катта эътибор бериш керак. Жамоада бола ўзаро ишонч, бурч ва масъулият остида яшайди. Бу эса ортиқча эҳтирос ва майлларни жиловлаб туриш воситаси саналади. Яхши жамоа белгиси бу - унинг ҳар бир аъзоси ҳимоясиз бўлмаслигидадир. Жамоада ҳеч ким камситилмаслиги, бошқалар томонидан калака қилинмаслиги керак. Зўравонлик ва шармандалик, ҳаёсизликнинг ҳар қандай ўринишларига нисбатан аёвсиз муносабатда бўлинади. Жамоада бола онгида жинсий майл ва эҳтиросларини тартибсиз жунбушга келишини назорат қилиб туришга ҳам тўғри келади. Бунда жамоадаги ҳар бир шахс педагог ва психологдир. Демак, балоғатга етаётган ўғил ва қиз тарбияси ўта нозик педагогик-психологик ҳодиса бўлиб, уни юзага келиши ва намоён бўлишига ҳушёр бўлиш керак. Акс ҳолда, бола келажакдаги кутилмаган ҳолатларга йўл очиб қуйилади. **Биринчи ҳолат** - жинсийлик, шахс шаклланишининг асосларидан бўлиб, эрак ва аёл бўлишга йўналтирувчидир. Бу шахсинг жинсий камолотигагина эмас, балки уни ижтимоий жиҳатдан шаклланишида етакчи ўрин эгаллайди. **Иккинчи ҳолат** жинсий майлни бостириш эмас, уни қўллаб-қувватлаш керак. Бу эса икки жинс ўртасидаги ўзаро қониқишни таъминлайди ва педагогик жиҳатдан мақсадга мувофиқдир. **Учинчи ҳолат** – болаларни эрта жинсий муносабатдан сақлаш керак. Акс ҳолда кутилмаган салбий ҳолатларга дуч келиш мумкин. Жинсий тарбияда энг муҳим педагогик вазифа- болаларда инсоннинг ижтимоий моҳиятини шакллантиришдир. Бола ўзини кишилик жамяти вакили эканлигини англаб етса, ўз хулқи ва жинсий майлларини идора эта олади. Жинсий тарбиядаги иккинчи тушунча- болада жинсий аъзо ва жинслар ўртасидаги фарқни билишдир. Шундагина бола ўз жинсий аъзосининг қадр- қимматига етади.

Жинсий тарбия вазифасига: болаларда қарама-қарши жинслар ўртасида ўзаро ҳамкорлик асосидаги ижтимоий-ахлоқий муносабатларни қарор топтириш; ўз соғлиги ва маънавий-ахлоқий ҳолатини сақлаш; келгусидаги тўлақонли оилавий муносабатларга тайёрланиш; оилавий ҳаётда ва болалар тарбиясида жамият қизиқишларини ҳисобга олиш; ижтимоий ва меҳнат муносабатларида ҳар иккала жинс хусусиятларини ҳисобга олиш кабилар киради.

Жинсий тарбия соҳасида бир қанча камчиликларга дуч келиш мумкин. Бу аввало, ота-оналар билан боғлиқ, яъни боланинг жинсий ривожланиш

даражасини билмаслик ва унга тескари реакция кўрсатиш; жинслар орасидаги ишончсиз муносабат; болаларга ишончсиз муносабат ўрнатиш.

Alisher Navoiy o'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan buyuk ajdodlarimizdan biri hisoblanadi. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz. Navoiy milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, shan-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Bu buyuk zot haqida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday fikrni bildirgan edilar: "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir". Darhaqiqat, jahon tamadduniga tamal toshlarini qo'ygan buyuk ajdodlarimiz umrning mohiyatini o'zlikni anglash, tafakkurni yuksaltirish va inson degan sharafli nomga munosib tarzda yashashda, deb bilishgan. Ilmga, ma'rifatga Navoiyning muhabbati doimo yuksak bo'lgan. U o'zining "Layli va Majnun" dostonida shunday yozadi:

Har kimgaki ulum bo'lsa vosil,

Gar dardi-yu holi yo'q hosil.

Ya'ni inson bir necha ilmni egallasa-yu, bu ilmlarga ixlos bilan amal qilmasa, undan boshqalarni bahramand qilish dardi bo'lmasa, bunday ilmning foydasi yo'qdir, egallanayotgan ilm, o'rganilayotgan hunar jamiyatdagi insonlarga yordam bersa, elning manfaatini ko'zlasagina u haqiqiy ilm, chin hunar bo'ladi. Mashaqqat bilan bilim o'rganib, unga amal qilmaydigan, odamlar dardini olmaydigan bo'lsa, u naqadar kerakli ilm bo'lsa ham foydasizdir. Ilmli inson yashashning mohiyatini, hayot deb atalgan ulkan tortiqning nima uchun berilganligini teranroq anglaydi. Vaqtini, umrini ezgu ishlarga bag'ishlaydi. Navoiy komil inson edi. Mutafakkir sifatida umrbod o'qib-o'rganish, yod olish bilan shug'ullangan bo'lib, bu sifatlar yoshlarimizni doimo ilmli, ma'rifatli bo'lishga chaqiradi.

Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U "Bilim va donishmandlik insonning bezagidir" - deb yozadi. Shu boisdan ham Alisher Navoiyni didaktikaning rivojlanishiga ham o'zining munosib hissasini qo'shgan alloma sifatida e'tirof etiladi. Allomaning didaktikaga oid asarlaridan eng muhimi "Mahbub ul-qulub"dir. Ushbu asar uch qismdan iborat. Birinchi qismda jamiyatning turli tabaqalari to'g'risida so'z yuritiladi. Ikkinchi qismda axloq va oliyanob fazilatlar tavsiflanadi. Uchinchi qismda esa tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan hikmatli so'zlar, maqollar berilgan. Asarda maktabdolar, mudarrislar haqida ham ilobiy fikrlar aytilgan. Navoiy xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish to'g'risida g'amxo'rlik qilgan. Uning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. Mamlakat va xalq uchun maktab g'oyat katta ahamiyatga molik:

**Bo'lur g'am ulug'larga mazhab yo'li.
Chu yoshlarga boshlansa maktab yo'li.**

Navoiyning yozishicha, o'sha davr maktablarida Qur'ondan tashqari, fors-tojik adabiyotining zabardast siyмосi Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari ham o'qitilgan. Navoiyning fikricha, bolalarga tarbiya va ta'lim beradigan kishi ma'lumotli va o'qitish yo'llarini biladigan bo'lishi lozim edi. Alisher Navoiy Qays bilan Laylining ustozini shunday ta'riflaydi: "U ajoyib inson edi. Qabilada izzat-hurmatga ega, har ishda qabila ahliga yordamlashguvchi ham edi. Zo'r obro'ga ega, martabasining yuksakligi ko'kka teng bir shaxs edi". Keltirilgan misoldan ko'rinadiki, Navoiy yosh avlodni tarbiyalash, o'qitish ishini har qanday tasodifiy kishiga topshirishni qoralagan. U o'qituvchiga eng yuksak talablarni qo'ygan. Bolani tarbiyalash va unga ilm berish uchun nihoyatda bilimdon va qobiliyatli, o'qitish yo'llarini yaxshi bilishi lozim va zarurligini uqtirgan. Buyuk allomaning bunday qarashlari hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega bo'lib, Navoiy merosini yosh avlodga chuqur o'rgatishimiz zarurdir. Zeroki, u o'z asarlarida milliy iftixor, xalqqa, ona tiliga, Vatanga mehr-muhabbat, sadoqat bilan qarash g'oyalarini targ'ib qilgan. Ulug' mutafakkir yoshlarni sabot va matonat bilan bilim egallashga, kasb o'rganishga, egallangan ilm va hunarni Vatani, xalq uchun tadbiiq eta bilishga da'vat qilgan.

Navoiy madrasa arabcha o'quv yurti degan ma'noni bildirishini, bu o'quv yurti musulmon dunyosi tarixida dastavval Turkistonda budda monastirlari ta'siri ostida paydo bo'lganligini bayon qilgan. Ulug' shoir mamlakatni obodonlashtirishga, madrasalar qurishga alohida e'tibor bergan. U Hirot shaxridagi "Injil" nahri bo'yiga nihoyatda chiroyli "Ixlosiya" madrasasini qurdirgan. Unga nom qo'yilishi haqida bunday yozadi: "Bu madrasakim ulusi ixlosdin yasaldi, "Ixlosiya" deb nom qo'yildi". Navoiy chin ixlos bilan qurilgan bu madrasani o'sha zamonning eng na'munali o'quv maskaniga aylantirish uchun mablag'ni ayamay maxsus vaqf mulki belgilagan. O'z madrasasidagi o'quvchilarni moddiy jihatdan ta'minlab turishga harakat qilgan. Madrasadagi o'quv ishlariga bosh mudarris rahbarlik qilgan, xo'jalik ishlarini esa mutavalli olib borgan. O'sha davrda madrasalardagi o'qish muddati muayyan bo'lmagan bo'lib, o'qish hatto 20 yilgacha ham cho'zilgan. Madrasaga o'qish va yozishni, din qoidalarini bilgan, diniy kitoblarni bemalol mutoala qila oladigan kishilargina qabul qilingan. Ilmga ishtiyoqmand yoshlar har qanday qiyinchiliklarga qaramay madrasalarda ta'lim olishga harakat qilganlar. "Hayratul abror" asarining ikkinchi maqolatida bir ilm tolibining katta umidlar bilan o'z shaxridan yo'lga chiqib, boshinda kechirgan kulfat va mashaqqatlarini tasvirlaydi. Navoiy o'sha davrlarning sarguzashtlarini o'z taasurolarida yozgan edi. Ushbu tasurotlar o'sha davrdagi ilmi toliblar uchun juda hosiyatli sanalgan.

**Zulm durur ushbu ki bir notavon,
Ilm tilab shahridin o'lg'ay ravon.
Egnida avroqu kitobi aning,
Qilgali tahsil shitobi aning.**

Navoiy zamonida xalq ilm va hunar o'rganishni istar, lekin xalqning bu istagini amalga oshirish uchun xizmat qiladigan ta'limiy muassasalar juda kam bo'lib, mavjud maktab, madrasalar esa talabga to'la javob bera olmas edi. Ilmga havas qo'ygan, hunar o'rganishni hohlagan yoshlarga davlat tomonidan hech qanday madad, ko'makning yo'qligi o'z maqsadlarini amalga oshirish imkonini bermasligi sababli mamlakatdagi ma'rifatparvar kishilar yordamida o'z hollaricha ilm

olishga, hunar o'rganishga kirishar edilar yoki mustaqil ravishda bilim olar edilar. Navoiy asarlarida o'z davridagi maktablarning ta'lim-tarbiya ishlari yaqqol ifodalangan. Bolalarni maktabda o'qitishning eng asosiy qoidalari sanab o'tilgan. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, Navoiy yosh avlodni tarbiyalash, ularni ilmi, ma'rifatli qilish masalalariga katta e'tibor qaratgan. Shuningdek bu ma'suliyatli ishni har qanday tasodifiy kishiga topshirishni ham qattiq qoralagan. Allomani ta'lim tarbiyaga oid bu qadar ahamiyatga ega bo'lgan qarashlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Navoiy asarlarida madh etilgan xalqlar do'stligi, yosh avlodni o'qitish, bilimli qilish kabi fazilatlar hamisha xalqimizga tetik ruh va quvvat bahsh etaveradi.

Садыкова Д.Р., Садыков Х.М.
(Джизак, Узбекистан)

ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ ГАРМОНИИ ОБЩЕСТВА И СЕМЬИ

Аннотация. *Жамият ва оила уйғунлигининг маънавий ахлоқий қиёфаси аجدодларимиздан бизга ўтган билим ва тажриба, маданий қадриятлар асосида ва замондошларимиз эришган ютуқлари негизида барпо бўлади.*

Зеро, оила соғлом, унинг маънавий ахлоқий асоси мустаҳкам бўлса, демак жамиятдаги ахлоқий муҳит ҳам соғлом бўлади. Бу эса, ўз навбатида жамият ва оила уйғунлигидан далолатдир.

Таянч сўзлар: *Тарбия, тамойил, ахлоқ, маънавият, оила, жамият, кадрият.*

В данной статье речь идет о духовно – нравственных принципах гармонии общества и семьи. Духовно – нравственный облик гармонии общества и семьи формируется на основе знаний и опыта, культурных ценностей, оставленных нам нашими предками и на основе достижений, достигнутых нашими современниками.

Если прочны духовно – нравственные устои семьи, значит, здорова и прочна нравственная атмосфера общества. Это, в свою очередь, доказательство гармонии общества и семьи.

Ключевые слова: *воспитание, принцип, нравственность, духовность, семья, общество, ценность.*

Annotation. *Spiritual – moral appearance of society and family is created by knowledge and experience of our ancestors by aultural value and achievements of our contem – poraries.*

It the family is healthu and its spiritual – moral fundamentals are stable, moral environment of the society will be healthu too. And this is the evidence of unity of society and family.

Key words: *Education, tendency, moral, spirituality, family, society.*

Известно, что судьба человека, его достижения или неудачи в жизни, счастье или несчастье, выбор профессии, даже настроение связаны с его семейной атмосферой. Духовный облик общества зависит от того, каковы семьи, живущие в нем. Это древняя истина. Потому что, семья – общественно – духовное звено общества, его маленькая ячейка и именно на основе семьи создаются сегодняшний день и будущее нашего народа. Если в семье будут порядок и дисциплина, члены семьи применяют их в своей трудовой деятельности, то это способствует выполнению ими своих служебных функций на высшем уровне. Создание семьи на этих качествах, как такт, нравственность, вежливость, трудолюбие, приобретает важное значение в отношениях и общении между людьми и в характере, и в поведении личности. Если семья воспитывает своих детей в духе любви и преданности Родине, то это чувство сопутствует им всю жизнь.

Духовно – нравственный облик гармонии общества и семьи формируется на основе знаний и опыта, культурных ценностей, переданных нам нашими предками и на основе достижений, достигнутых нашими современниками. Наше время характеризуется насыщением информации и представлений, и взглядов о преобразованиях, происходящих в развитых странах, которые достигли высокого прогресса на основе современной технологии.

В формировании и развитии своеобразной духовности каждой нации, безусловно, несравнимо место и влияние семьи. Потому что самые ясные и чистые чувства, первые жизненные понятия и представления человека, в первую очередь, формируются в лоне семьи.

Основу семьи составляют брачные отношения. Брак – это общественно – нравственная форма исторически возникших отношений между мужем и женой. С помощью брака общество регулирует половую жизнь между супругами и узаконивает их права и обязанности в семье. Вместе с тем семья является наиболее сложным прочным союзом, чем брак, и включает в себя не только супругов, но и их детей и родственников, входящих в состав этой семьи. Семейные отношения, является сравнительно самостоятельным явлением, никто не имеет право вмешиваться во внутренние дела семьи. По этому семья является священной и неприкосновенной. Символически семья своеобразное маленькое государство. Но семья не существует вне общества, а часть общества. Семья испытывает на себе правила и обычаи народа, общества, все лучшее оберегает и передает будущим поколениям. Семья, воспитывая своих детей, им прививает общечеловеческие ценности и дает начальное общественное направление. Приобщая своих детей к обществу, семья оказывает влияние определению экономики, культуры и просвещения общества. Поэтому семья на востоке издавна считалась священной крепостью. В формировании определенного образа жизни узбекских семей, в повышении жизненного опыта, в бережном, аккуратном содержании хозяйства, становлении детей приличными, духовно зрелыми родители играют большую роль.

Узбекские семьи отличаются своей прочностью, убранным, чадолюбием, уважительным отношением к родственникам, умам, благосклонностью, благородством и другими ценностями.

При прочной, спокойной, благополучной, здоровой семье возможна стабильность общества. Прочность общества зависит от мира и спокойствия семьи, искреннего отношения друг другу членов семьи, от их нравственного воспитания. Семья – фактор, обеспечивающий неуклонность человечества, а также передачу ценностей, обычаев и традиций, культурного духовного наследия народа из поколения в поколение. Священный долг и задача семьи не только рождение детей, но и воспитание их высоконравственными и образованными, создание условий для самостоятельного занятия достойного места в обществе.

Цель семьи – на основе взаимного согласия двух полов родить ребенка и обеспечить продолжительность природы и общества.

Задача семьи – на основе совместного ведения хозяйства супругов обеспечить семью и с духовной, и с экономической стороны, а также воспитать здорового, умного, всесторонне развитого ребенка.

Семья, как общественное явление, считается великим изобретением человечества.

Поэтому в человеческом обществе изучение истории появления семьи, ее общественной сущности, нравственно – воспитательной роли вызывает интерес.

В сущности взгляды о семье, взявшие свои истоки из «Авесто», «Корана» и священных хадисов, развивались в произведениях Абу Насра Фараби, Абу Райхана Беруни, Абу Али ибн Сина, Кайковуса, Алишера Наваи и других мыслителей, они этот вопрос интерпретировали в основном с точки зрения взаимоотношений родителей и детей.

Прочность каждой семьи, мирная и благополучная жизнь членов семьи, жизнь во взаимном уважении и почете -важный фактор подготовки молодёжи к будущей жизни. Семья положительно влияет формированию человека как личность, помогает в совершенствовании духовности молодёжи, составляет основу нации, объединяет два поколения.

Семья – основное гнездо воспитания гармонически развитого, здорового поколения. Мы здесь понимаем воспитание не только физически здорового человека, но и человека, развитого в духе восточных приличий, морали и общечеловеческих ценностей.

Человек, усвоивший национальную нравственность, а также общечеловеческие идеи, может быть духовно богатым человеком. А духовное совершенство выделается в мировоззрении, убеждении, психике, нормах поведения, нравственности человека.


Духовно зрелые люди не равнодушны к судьбе и благосостоянию народа, к судьбе и процветанию Родины.

Такие люди не хотят жить в покорности и зависимости. С этой точки зрения семья – источник формирования здоровой атмосферы, здоровой идеи и бескомпромиссной идеологии. Семья в человеческом обществе – единица, преобразующая осознание человеческих достоинства и чести, идеи патриотизма в свой ведущий фактор. Доброту родителей, человеческие качества и свойства членов семьи, духовный мир семьи внедряет в практику. Семья маленькое общество, которое осуществляет устранение проблем в воспитании ребёнка, опираясь основам идеологии независимости. Как общественный институт, семья- священный и великий обитель, в ней человек

вырастает, созревает, совершенствуется и формируется такой личностью, которая будет служить на благо общества.

Духовно – нравственная атмосфера в семье определяется отношениями супругов детям, родителям и близким, а также выполнением ими семейных обязательств. В узбекских семьях издавна стало традицией воспитывать детей на основе учета общественного мнения, всей махаллей, в духе уважения благих традиций, привить им трудолюбие, честность, правдивость, скромность, искренность, бережного отношения к материальным и духовным богатствам народа. Семья – общественное – психологическое явление, формирующее и воспитывающее менталитет нации. Национальные качества каждого народа формируются, прежде всего, создателями семьи в процессе воспитания детей. На этой основе семья превратилась в духовную школу, обеспечивающую долговечность народных национальных традиций, передачу их из поколения в поколение. Так как в узбекских семьях привлекает внимание славное выполнение старым поколением формирования духовно – нравственной атмосферы в семье.

Вследствие этого формируется нравственность семьи.



Семья – общественный институт, где обеспечиваются вечность жизни, продолжительность поколений, формируются своеобразные отношения между людьми, которые воплощают в себя обычаи, традиции, моральные правила и нормы, оказывающие непосредственное влияние воспитанию будущего поколения.

За долгую историю существования семьи человечеством накоплено много наблюдений за воспитанием детей. Из этих наблюдений вытекают общие закономерности воспитания детей в семье. Семья дает родителям наибольший шанс сделать своих детей счастливыми.

Особенно важно в тесном контакте с семьей направлять развитие ребенка, решить проблемы духовно – нравственного воспитания детей. От

того, как строятся отношения в семье, какие ценности, интересы здесь находятся на первом плане, зависит, какими вырастут дети.

Семье принадлежит особая роль в формировании у подрастающего поколения отношения к труду, к народному достоянию, в становлении высоких гражданских чувств, представлений о смысле и цели жизни. Дети учатся активному отношению к жизни, подлинно гражданскому поведению у родителей. Особенно благоприятные условия для воспитания создаются в многодетной семье. В ней ребенок растет в коллективе, он с детства привыкает к мысли, что должен принимать во внимание не только свои желания, но и желания братьев и сестёр. Многодетная семья, где совместно проживает несколько поколений, представляет собой могучий воспитательный коллектив, который направляет и контролирует поведение ребёнка. В таких семьях дети следят за младшими, помогают старшим. Когда детям надо укаживать за маленькими, за бабушками и дедушками, это обстоятельство само по себе воспитывает в ребенке доброту и человеколюбие, учит ответственности за свои поступки, правилам общежития, необходимости трудиться.

Семья должна стать коллективом, ощущать себя частью нашего общества. Ребенку необходимо расти в атмосфере дружеских связей родителей с их товарищами по работе, их радушия, благосклонности по отношению к друзьям сына, дочери. Семья, открытая для всех, как душа, распахнутая настежь, дружелюбие, приветливость, искренняя симпатия родителей к окружающим людям – вот благодатная почва для нравственного воспитания детей.

Невозможно воспитать у растущего человека чувство ответственности перед Родиной, если ему не знакомо чувство заботы о близких ему людях, о деле, которое ему поручено. Ребенок должен набирать опыт деятельной доброты, соучастия, для этого он должен пережить чувства радости от того, что сделал хорошее для других. Дети не должны стать собственностью родителей, они принадлежат стране, они ее будущее. С этих высоких позиций надо подходить к проблемам их воспитания и развития.

Хорошая семья – та, в которой много радости, веселья, труда, общего чтения.

Родители должны вести себя, как молодые с молодёжью, уметь добиться желаемого без принуждения и насилия.

Наполнить душу ребенка «животворящей» любовью – это самое главное в гармоничном развитии личности. Любовью к людям, к природе, к родному краю, к близким, ко всему прекрасному и возвышенному.

Первый Президент нашего государства, подчеркивая очень важную роль семьи в обществе, говорил: «Надо понимать, что наше государство – это большая единая семья. Если в этой семье не будет взаимного уважения и дисциплины, если члены семьи не будут выполнять свои обязанности, если они не будут относиться друг другу благосклонно, невозможно строить достойную жизнь. Семейная жизнь строится на основе закономерностей совести, имеет многовековые прочные духовные опоры, основывается на демократических принципах, на первый план ставится забота о близких. Это духовная ценность высшей степени».

Таким образом, если в семье прочная духовно – нравственная основа, то в обществе установится нравственно здоровая атмосфера. Это свидетельство гармоничности семьи и общества.

Литература

1. Х. Ибрагимов. Педагогика. Ташкент – 2010 год.
2. Г. Хайдарова, К.Пардаева. Народная педагогика. Ташкент – 2009 год.

**Содиқова Д.Р., Содиқов Ҳ.М.
(Jizzakh, Uzbekistan)**

ПЕДАГОГИК МАҲОРАТНИ ЭГАЛЛАШ ЙЎЛЛАРИ

Ўқитувчи баркамол авлодни тарбиялаш жараёнида иштирок этар экан, нафақат маънавий-ахлоқий маданияти билан атрофдагиларга ўрнак бўлиши, шу билан бирга, педагогик маҳоратини намоеън эта олиши, етук педагог сифатида малакали кадрларни тайёрлаш ишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиши зарур.

Педагогик маҳорат – юксак педагогик тафаккур, таълим-тарбия жараёнига онгли, ижодий ёндашув, методик билимларни самарали қўллай олиш қобилияти бўлиб, у доимий равишда педагогик билимларни ошириб бориш, янгиликлардан хабардор бўлиш, илғор технологияларни ўзлаштириш асосида таркиб топади. Ёш, шунингдек, таълим муассасасида бир неча йиллик меҳнат стажига эга бўлган ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратга эга бўлишлари ўзини касбий жиҳатдан такомиллаштириш йўлида бир қатор шартларга амал қилиши ҳисобига таъминланади. Улар қуйидагилардан иборат:

1. Мустақил ўқиб-ўрганиш (педагогика фанида рўй бераётган янгиликлар ҳақида маълумотларни берувчи янги адабиётлар, Интернет материаллари, вақтли матбуот саҳифаларида чоп этилаётган маълумотлар, шунингдек, илғор технологиялар билан танишиб бориш, уларда илгари сурилаётган ғояларни умумлаштириш, хулосалаш асосида мустақил лойиҳаларни тайёрлаш).

2. Ҳамкасб тажрибали ўқитувчилар фаолиятини ўрганиш (таълим муассасасидан четга чиқмаган ҳолда ташкил этилиб, вақт, шунингдек, иқтисодий нуқтаи назардан самарали саналади. Тажрибали ўқитувчилар фаолиятини ўрганиш улар томонидан ташкил этилаётган машғулотларни кузатиш, таҳлил қилиш асосида амалга оширилади. Бу борада олинган таассуротларни умумлаштириш асосида хулоса чиқариш мақсадга мувофиқдир).

3. Педагог ходимларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курс (институт)ларида касбий малакаларини ошириш.

4. Доимий равишда илмий анжуманлар (назарий ва амалий конференция ҳамда семинарлар, педагогик ўқиш ҳамда тренинглар)да фаол иштирок этиш.

5. Республика ҳамда ривожланган хорижий мамлакатларнинг етакчи таълим муассасаларида уларнинг иш тажрибаларини ўрганиш.

Айни вақтда, республикада, «Устоз» жамғармасининг ҳомийлигида таълим муассасаларининг ўқитувчилар ривожланган хорижий мамлакатларда бўлиб, уларнинг таълим тизими ва иш тажрибаларни ўрганмоқдалар.

Педагогик маҳоратни эгаллашда, гуруҳли ва оммавий тадбирларда иштирок этиш ижобий натижалар беради. Бинобарин, бундай муҳитда ўзаро фикр алмашиш, шахсий мулоҳазаларни бошқалар томонидан билдирилаётган қарашлар билан таққослаб, уларнинг тўғрилиги, ҳаққонийлигига ишонч ҳосил қилиш, мавжуд билимларни янада бойитиш, хато ёки камчиликларни аниқлаш ҳамда уларни баратараф этиш йўлларини топиш имконияти мавжуд.

Педагогик маҳоратга эга бўлиш таълим-тарбия самарадорлигини таъминлаш гарови бўлибгина қолмай, айни вақтда ўқитувчининг жамоадаги обрў-эътиборини ҳам оширади, ўқувчиларга унга нисбатан хурмат юзага келади.

Касбий маҳоратни ошириш йўлида амалий ҳаракатларни ташкил этиш педагогик фаолиятда йўл қўйилган ёки қўйилаётган хатолардан ҳоли бўлиш, ўқувчилар, ҳамкасблар ҳамда ота-оналар билан муносабатда муваффақиятларга эришиш имкониятини яратади.

Ўз даврларида Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Алишер Навоий, Ян Амос Коменский, Лев Толстой, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий, Абдулла Авлоний ва бошқалар ўз асарларида ўқитувчилик касби, унинг машаққатлари, шунингдек, ўқитувчи шахсида акс этиши зарур бўлган сифатлар хусусидаги қарашларни ёритиш орқали ўзлари ҳам педагогик маданиятга эга эканликларини намоён этганлар. Бинобарин, педагогик жараённинг моҳиятини англамаган, болага нисбатан чуқур ҳурматда бўлмаган шахс таълим-тарбия самарадорлиги ва инсон камолотини таъминловчи фикрга эга бўлмайди. Уларнинг педагогик маданиятлари негизини болани тушуна олиш, унга инсбатан инсонпарвар муносабатда бўлиш, вазиятни тўғри баҳолаш, юзага келиш эҳтимоли бўлган зиддиятларни ўз вақтида баратараф этиш, педагогик фаолиятнинг ҳақлиги, жамият тараққиёти ҳамда педагогик жараёнда ўқувчилар онгига сингдирилаётган эзгу ғояларнинг ҳаёт мавжудлигини таъминлашда қудратли омил (восита) эканлигига ишонч кабилар ташкил этади.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикасида малакали (маҳоратли) ўқитувчиларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг тажрибаларини оммалаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Маҳоратли ўқитувчиларни аниқлаш мақсадида турли кўрик, танловлар ташкил этилмоқда. Хусусан, «Йил ўқитувчиси» Республика кўрик-танлови таълим муассасаларида фаолият олиб бораётган ўқитувчиларга педагогик маҳоратларини индивидуал равишда намоийш этиш имкониятини бераётган бўлса, «Йил мактаби» Республика кўрик-танлови ўқитувчиларга жамоа асосида таълим муассасасида қўлга киритилаётган ютуқларни оммага кўрсата олишлари учун шароит яратмоқда.

Шунингдек, республика миқёсида, педагогик фаолиятда улкан ютуқларни қўлга кирита олган ўқитувчилар таълим соҳасида нуфузли саналувчи давлат мукофоти – Ўзбекистон Республикаси Халқ ўқитувчиси кўкрак нишонига сазовор бўлмоқдалар.

Хулоса ўрнида шуни қайд этиш жоизки, «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» Ўзбекистон республикасида, таълим тизимида амалга оширилаётган

ислоҳалар мазмунини ўзида акс эттирган муҳим юридик ҳужжат бўлиб, истиқбол учун йўлланмадир.

«Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»да, алоҳида таъкидланган миллий модел Ўзбекистон Республикасининг миллий-ҳудудий хусусиятларини инобатга олиш ҳамда илғор фан, техника ва технология ютуқлари асосида тайёрланган кадр (мутахассис) – комил инсон ва етук мутахассис қиёфасини ўзида тўлақонли акс эттирувчи намунадир.

«Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» ғояларининг амалиётга тадбиқ этилиши Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ҳаёти учун муҳим саналган бир қатор ҳолатларнинг қарор топишига олиб келади.

Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни ҳамда «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» ғояларини амалга ошириш жараёнида ўқитувчи кадрлар муҳим рол ўйнайдилар. Комил инсон ва етук малакали мутахассис махсус ташкил этилган педагогик фаолият жараёнида тарбияланар экан, ушбу жараёнда ўқитувчиларнинг ўрни беқиёсдир. Шу боис уларнинг шахсида бир қатор ижобий маънавий-ахлоқий сифатлар намоён бўла олиши мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар:

1. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Т.: “Iqtisod–moliya”. 2009.
2. Холиқов А.А. Педагогик маҳорат.. – Т.: “Iqtisod–moliya”. 2011.

Устаджалилова Х., Рафиқов Ф.
(Қўқон, Ўзбекистон)

ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ МЕТОДЛАРИНИНГ АСОСИЙ ТУШУНЧАЛАРИ

Устаджалилова Х., Рафиқов Ф.
(Коканд, Ўзбекистон)

ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ МЕТОДОВ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. В статье приводятся основные понятия научно-исследовательской работы, приведены методы педагогического исследования, такие, как анализ и синтез, индукция и дедукция, системный анализ, сравнительный анализ, анкетирование, тест-опрос.

Kh. Ustadjhalilova, F. Rafikov
(Kokand, Uzbekistan)

BASIC CONCEPTS OF METHODS OF SCIENTIFIC RESEARCH

Summary. The basic concepts of research work are given in article, methods of a pedagogical research, such as analysis and synthesis, induction and deduction, system analysis, comparative analysis, questioning, test poll are given.

Анализ ва синтез методлари илмий изланишларда кўп қўлланиладиган методлардан бири анализ ва синтездир. Ҳозирги замон фанларида, илмий-назарий изланишларда объект (предмет)ни анализ ва синтез қилиш анъанага айланган. Анализни қисм, бўлак ва йўналишлар таҳлилидир. Объект (предмет)ни маълум бир қисм, бўлак ва йўналишларга ажратиш уларнинг бутун, система (тизим), яхлит билан боғлиқликларини аниқлашга ёрдам беради. Шундай объект (предмет)лар борки, ички қисмларга ажратмай уларни англаш, билиш мушкул. Масалан, жамиятни олайлик. Жамиятнинг қандай сифатларга, имманент белги-ларга эга эканини билиш учун уни сиёсий, иқтисодий, маданий каби соҳаларга ажратишга (классификация ва дифференциация) тўғри келади. Ушбу соҳаларнинг имманент хусусиятлари ва перманент алоқаларини таҳлил қилгач, жамият ҳақида фикр юритиш мумкин. Анализ объект (предмет) қисмларини классификация ёки дифференциация қилиш билангина шугулланмайди, унинг мақсади бутунга хос бўлган хусусиятлар, белгилар, қонунларни топишдир. Шу нуқтаи назардан унга синтезнинг дастлабки босқичи, синтезга ўтишнинг шарти сифатида қарашади. Анализ илмий мақсадга мувофиқ амалга оширилсагина объект (предмет)нинг номаълум хусусиятлари, белгилари ва қонуниятларини топишга ёрдам беради. Илмий мақсад эса объект (предмет)ни тўлалигича ўрганиш, унинг идеал ҳолатга кўтарилиши учун яширин имкониятларини аниқлашдир. Илмий мақсад учун объект (предмет)-нинг реал ҳолатини ўрганиш етарли эмас, ҳатто бу борада бетакрор назарий кашфиётлар қилинса ҳам идеал ҳолат томон бориш йўллари, имкониятларини излаш зарур. Анализнинг мақсади қисмларни бутун орқали идеал ҳолатга етиш имкониятларини излашдир. Фақат шу тарзда анализ илмий мақсадга хизмат қилиши мумкин.

Илмий мақсад методларга ғоя, установка (кўрсатма) бермайди, у методларга йўналиш беради, холос. Агар илмий мақсад ғоя, установка берса, у олдиндан шаклланган ғоя, установка, яъни шаблон доирасида изланади, холос. Ваҳоланки, объект (предмет) ҳар қандай ғоя, установкадан кенгдир. Анализ олдиндан шаклланган ғоя, установкага эмас, балки объект (предмет)ни объектив тадқиқ этишга хизмат қилади.

Анализ методи классификация ва дифференциация усулларига таянади. Бу ўринда классификация ва дифференциация анализ методининг воситалари сифатида келади.

Классификация бутуннинг ичидаги имманент белгилари ёки перманент алоқалари бир-бирига муштарак, яқин қисмларни, бўлақларни синфларга, гуруҳларга ажратиш усулидир.

Дифференциациялаш(табақалаштириш) бугунга қарашли, аммо функционал бирбирига боғлиқ бўлмаган ҳар хил қисмлар, бўлақларни ўрганиш усулидир. Бундай ҳар хил қисмлар, бўлақларнинг мавжудлиги бутуннинг, системанинг қонуниятга бўйсунушидан далолат беради.

Синтез анализ методи эришган, етган фикр, хулосаларни умумлаштирувчи тадқиқот методидир. У бутун, системанинг мақсад ва вазифаларини қисмлар ва бўлақларга татбиқ этади, уларнинг реал ҳолатини бутун, система реал ҳолатига таққослаш имконини беради.

Шунинг учун синтез илмий тадқиқотнинг концепцияси, мақсади ва вазифалари билан чамбарчас боғлиқдир.

Синтез тадқиқот объекти (предмет)нинг қисмларига, бўлақларига хос бўлган хусусиятларни, белгиларни тадқиқ қилганида икки нарсани ҳисобга олади: биринчиси, қисмнинг, бўлақнинг бутун, система хусусиятларини, вазибаларини ўзида қанчалик акс эттирганини; иккинчиси, бутун, система ўзининг стратегик мақсадини қисмлар, бўлақларга қанчалик сингдирганини.

Тадқиқот объект (предмет)ларини гуруҳларга (классификация) ва турли қисмларга ажратиш (дифференциация) классик фалсафада эътироф этилган **индукция ва дедукция** методларини эсга солади. Индукция қисмдан, бўлақдан бутунга, системага боришдир. Бу ўринда анализ методи деярли индукция методи сифатида келади. Улар тўғрисида турли назарий фалсафий фикрлар мавжуд, ушбу ғносеологик муаммони таҳлил этиш бизнинг вазибаларига кирмайди.

Энг муҳими, анализ мудом индуктив билишга таянади. Буни эсда сақлаб қолиш ёш тадқиқотчи учун етарлидир.

Дедукция методи дейилганда бутун, системадан хусусийга – қисм, бўлақларга бориладиган билиш усули тушунилади. Бутунга, системага хос хусусиятларни, белгиларни қисмлардан, бўлақлардан излаш, шу тариқа бутун система билан қисмлар, бўлақлар ўртасидаги

умумийликни аниқлаш дедукция устига юклатилган вазибаларидир.

Бунинг синтез усулига яқинлигини пайқаш қийин эмас. Индукция ва дедукция анализ ва синтезнинг методларининг айнан ўзи бўлмаса-да, аммо уларнинг илмий методлар сифатида шаклланишига хизмат қилишини унутмаслик керак. Шунинг учун деярли барча тадқиқотларда индукция ва дедукция анализ ва синтез

методларининг хусусиятлари сифатида қайд этилади, гоҳи улар тўла айнанлаштирилади. Бизнинг фикримизча, бу ўринда тадқиқотчининг фикрига қулоқ солиш, индукция, дедукция билан анализ, синтезметодлари ўртасидаги яқинлик, муштаракликдан келиб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Тизимли функционал ёндашув:

– объект (предмет)ларнинг (қисм, бўлақларнинг) функционал боғлиқ;
– тизимга оид қисм, бўлақларнинг мустақиллиги релятивистик кўринишга эга;

– қисмлар, бўлақлар ўзининг мақсад ва вазибаларини тизим (бутун, система)нинг стратегик мақсадларидан олиши, агар лозим бўлса, ушбу мақсад ва вазибаларини ўзгартириши, янги мақсад ва вазибалар танлаш имконига эга бўлишини талаб этади. «Тизимли функционал ёндашув» тушунча сифатида юқоридаги талабларга жавоб беришга тайёр объект (предмет)ларгагина қўлланилад. Ҳатто объект (предмет) янги мақсад ва вазибалар танлаганида ҳам тизимнинг стратегик мақсадидан четга чиқолмайди, акс ҳолда у назарда тутилаётган тизимдан чиқади.

«Қиёсий таҳлил» икки ёки бир неча объект (предмет)ларни бирбирига солиштириш, ушбу солиштиришдан маълум бир мантиқий, назарий хулосалар чиқариш усулидир. (Сравнение и аналогия) Қиёслаш, солиштириш субстрат (субстанция)ни бошқа объект (предмет)га таққослашни тақозо этади. Агар субстрат (субстанция) яқка асос, негиз бўлса, у ўзининг ички қисмларига қиёсланиши мумкин. Масалан, материя субстрат (субстанция) бўлса, у протон

ёки изотопларга, водороднинг атоми кислороднинг атомига қиёсланиши мантиқан тўғридир.

Сўровномалар социологик тадқиқотлар ўтказишда кенг қўлланиладиган методдир, уларни ўтказишдан мақсад – объект (предмет) ҳақида жамоатчилик фикрини билишдир. Жамоатчилик фикри эса объект (предмет)нинг реал ҳолати ҳақидаги ахборотдир. Шунингдек, у объект (предмет)нинг идеал ҳолати ҳақидаги тасаввурлардан ҳам хабардор қилади, у ёки бу масалага изланувчининг диққатини жалб этади.

Сўровномалар турига кўра оммавий, гуруҳий ва якка тартибда ўтказилади. Оммавий сўровноманинг адиторияси, респондентлари айрим олинган ҳудуддан тортиб, то бутун мамлакат аҳолисигача бўлиши мумкин. Бу сўровномада эътибор аҳолининг иложи борича барча қатламларини қамраб олишга қаратилади. Референдум оммавий сўровноманинг сиёсий туридир.

Оммавий сўровнома оғзаки ёки ёзма ўтказилади. Оғзаки сўровнома телефон орқали савол-жавоб, интервью тарзида ўтказилиши мумкин. Лекин бундай сўровномалар жуда кўп вақт ва репортёрларни талаб этади. Тўғри, телефон орқали сўровнома тез ўтказилади, аммо оммавий аудитория учун кўп репортёрлар зарур.

Тест ҳам сўровномалардан биридир. Уни ўтказишдан мақсад респондентнинг билими, кўникмаси, дунёқараши, қийин вазиятлардан чиқишга тайёриги кабиларни аниқлашдир.

Анкета тузишда қуйидагиларга эътибор бериш зарур:

– сўровномадан олинадиган жавоблар илмий муаммо билан боғлиқ бўлиши;

– объект (предмет)нинг реал ҳолати ҳақида маълум бўлмаган ёки кузатилмаган ахборотлар олиниши;

– объект (предмет)нинг ички тузилиши ва ташқи алоқаларида кечаётган жараёнлар ҳақида объектив хабарлар бериши;

– бу пастулатни, хулоса ёки фикрни тасдиқлашга ёки рад этишга олиб келиши;

– объект (предмет)нинг идеал ҳолатга етиштириш учун зарур ахборотлар бериши

Кузатиш илмий тадқиқотларда кенг қўлланиладиган методлардан биридир. У оддий, кундалик кузатишлардан фарққилади. Оддий, кундалик кузатиш махсус режалаштирилмаслиги, маълум бир хулосаларга, хатти-ҳаракатларга, тавсияларга олиб келмаслиги мумкин.

Илмий кузатиш ўз режаси ва дастурига, макон ва замонда чегараланиш хусусиятларига, пировард натижада объект (предмет)нинг реал ҳолатини такомиллаштирувчи тавсиялар ишлаб чиқишга қаратилади.

Кузатиш методини бевосита ва билвосита кўринишларга ажратиш мумкин.

Бевосита кузатишда изланувчи объект (предмет) билан яқиндан алоқада бўлади, у билан суҳбатлашади ёки фаолиятида қатнашади.

Мутахассисларнинг фикрига кўра, бевосита кузатиш:

– объект (предмет)ни яқиндан билиш;

– ундаги позитив ва негатив хислатларни, хусусият ва белгиларни ўзида ҳис қилиш;

– унинг хатти-ҳаракатларига (тадқиқот дастурига мувофиқ) ралашиш, лозим топса, уларни тўғрилаш;

– идеал ҳолатига етиштириш учун зарур ахборотларни олиш;

– эксперимент ёки моделлаштириш учун керакли имкониятларни, шарт-шароитлар ва воситаларни аниқлашга, топишга ёрдам беради.

Эксперимент илмий тадқиқотни ижтимоий ҳаёт билан боғлаш ва йўлда мавжуд бўлган муаммоларни аниқлаш, уларни бартараф этиш механизмларини излаш усулидир. Илмий тадқиқотнинг назарий характери эксперимент орқали синаб кўрилади. Тадқиқотчи белгилаб олган фаразини қанчалик тўғри ёки нотўғри эканини эксперимент орқали аниқлайди.

Эксперимент ўтказиш ўз технологиясига эга. Бунда:

– илм-фан соҳаси хусусиятидан келиб чиқиш;

– илмий мақсадга таяниш;

– илмий фаразни синаб кўриш;

– объект (предмет) белгиларини унутмаслик;

– ижтимоий-амалий заруриятни ҳисобга олиш;

– қарши пастулатлар олинганини очиқ эътироф этиш ва бошқа талаблар назарда тутилади.

Статистик маълумотларни тўплаш ва улардан самарали, ўринли фойдаланиш тадқиқотчининг илмий қобилиятини кўрсатади. Улардан

илмий хулосалар чиқариш тадқиқотнинг ишончлилигини, асослилигини оширади. Статистик маълумотлар фақат статистика институтлари тарқатадиган рақамлар, маълумотларгина эмас. Бундай рақамлар ва маълумотлар асарлар, тўплалар, турли ҳисоботлар, ҳатто шахсий ҳужжатларда ҳам учрайди. Илмий тадқиқотларда кўпинча расмий статистикадан фойдаланилади. Улар, биринчидан, бутун мамлакат, ҳудудларни қамраб олади; иккинчидан, махсус текширувлардан ўтади; учинчидан, маълумотлар учун масъул идора ёки шахс мавжуд. Ишончли, махсус текширувлардан ўтган манбаларга таяниш илмий тадқиқотлар олдига қўйиладиган талабдир.

Адабиётлар

1. Новиков Д.А. «Статистические методы в педагогических исследованиях (типовые случаи)». М.: МЗ-Пресс, 2004. – 67 с.
2. <http://www.mtas.ru/uploads/stat.zip>

Хайитбаев Диёрбек Жонибекович, Урунова Феруза Сапаевна
(Ургенч, Хорезм, Узбекистан)

О НЕКОТОРЫХ ПРОТИВОРЕЧИЯХ В ИЗУЧЕНИИ ПРОБЛЕМЫ МЕЖПРЕДМЕТНЫХ СВЯЗЕЙ

Аннотация. В данной статье внимание акцентируется на развитие способностей и навыков методические приемы обучения и среди них – меж-предметные связи

Ключевые слова: Изобразительное искусство, умения, навыки и способности, силу развития, эффективных методов, приемов.

Педагогическая наука вынуждена, в силу развития, постоянно пересматривать некоторые дидактические положения в содержании и методах обучения. Одно из таких направлений - межпредметные связи как условие совершенствования целостного педагогического процесса: координации изучения школьных дисциплин, развития познавательных возможностей учащихся, умений учиться и формирования научного мировоззрения. Связи между отдельными предметами, выражающиеся в сопоставлении, сравнении, противопоставлении, обнаружении общего и особенного, главного и существенного в каждом из них, имеют важное значение для сознательного усвоения программного материала, более глубокого понимания окружающей действительности и развития самостоятельной познавательной деятельности человека.

Проблеме межпредметных связей уделено большое внимание: изданы монографии, брошюры, различные методические рекомендации, составлены тематические графики и схемы, в которых установлены преемственность и последовательность изучения многих гуманитарных предметов, защищены 4 докторских и около 50 кандидатских диссертаций.

В научно - педагогической литературе, посвященной данной проблеме, можно выделить несколько направлений:

- Показана теоретическая и функциональная значимость межпредметных связей общеобразовательных предметов в исследованиях Г.В. Воробьева, Ю.К. Бабанского, Б.П. Есипова, В.И. Загвязинского, И.Д. Зверева, Д.И. Кирюшкина, В.С. Леднева, И.Я. Лернера, Б.Т. Лихачева, В.Н. Максимовой, И.Т. Огородникова, Л.М. Панчешниковой, М.Н. Скаткина, В.Н. Федоровой и др.

- Установлены содержательные связи между различными дисциплинами в работах Н.О. Антонова, Ю.К. Васильева, Р.Е. Вендровской, И.А. Кошбахтиева, И.И. Логинова, А.А. Пинского, Д.И. Румянцевой, Н.М. Черкес - Заде и др.

- По вопросам подготовки учителей к использованию межпредметных связей в средней общеобразовательной, средней специальной и в высшей школах защищены докторские диссертации А.И. Еремкиным и В.К. Кирилловым, кандидатские диссертации В.А. Блохиной, Г.Н. Бодриковой, Ю.В. Васильевым, В.Е. Васьковской, А.А. Измайловой, П.Н. Новиковой и др.

- Влияние межпредметных связей на формирование мировоззрения учащихся показано в работах Г.И. Батуриной, В.М. Медведева, Э.И. Моносозна, Н.А. Сорокина, И.Я. Тонконового и др.

- Развитие идеи взаимосвязей рассматривалось в статьях Г.И. Батуриной, Ш.И. Ганелина, П.М. Иванова, П.Г. Кулагина и др.

Проблема межпредметных связей отражена и в узбекской педагогической литературе. Так, проф. И.А. Кошбахтиев в работе «Основы педагогики здоровья молодежи» пишет: «Педагогика здоровья» тесно связана и взаимодействует с другими науками: анатомией, физиологией, математикой, кибернетикой и др.»

Анализ педагогической литературы помог установить, что многие проблемы реализации межпредметных связей в обучении исследованы довольно подробно, а другие, не менее значимые стороны применения взаимосвязей изучены недостаточно. Среди них такие темы, как: влияние

межпредметных связей на развитие у учащихся познавательной деятельности, умений учиться; роль межпредметных связей в составлении учебных программ и учебников; критерии отбора смежного материала в целях реализации межпредметных связей; влияниемежпредметных связей на формирование научного мировоззрения. В этом мы видим первое противоречие в изучении данной проблемы.

Второе противоречие состоит в следующем: с начала 90-х годов произошло значительное изменение в содержании гуманитарного образования: вводились новые дисциплины («История мировой культуры», «История цивилизаций», «Обществознание», «География культуры», «Изобразительное искусство», «Основы безопасности жизнедеятельности», «Человек и общество» и др.), открывались новые школы с гуманитарным направлением. Однако и в этих заметно меняющихся условиях, когда каждый новый предмет должен найти свое место и логическое обоснование в общей гуманитарной подготовке, внимание к межпредметным связям заметно снизилось - в разработке новых дисциплин им не уделено должного внимания. Во-первых, недостаточно последовательно и четко показана значимость взаимосвязей в наиболее популярных учебниках по педагогике (И.Ф. Харламов, Б.Т. Лихачев, П.И., И.П. Подласый, В.А. Слостенин). Так, И.Ф. Харламов считает, что все содержание школьного образования должно строиться на основе взаимосвязей между отдельными учебными предметами. Автор перечисляет методические приемы обучения и среди них - межпредметные связи. Однако эти положения не получили развития в темах о процессе обучения. Также и в учебном пособии под редакцией П.И. Пидкасистого указано, что есть умения и навыки, которые формируются на основе межпредметных связей и что межпредметные связи должны быть в основе построения содержания образования. Но их значение в учебном процессе не раскрыто. П.И. Подласый напоминает, что межпредметные связи являются правилом обучения, а учебные программы должны содержать указания на реализацию межпредметных связей. Но этого недостаточно.

В учебнике под редакцией В.А. Слостенина раскрыт принцип «Преемственности, последовательности и систематичности в обучении», в котором подчеркивается: «...последовательность и систематичность в обучении позволяют разрешить противоречие, где с одной стороны, необходимость формирования системы знаний, умений и навыков по предметам, а с другой - необходимость формирования целостного мировоззрения о единстве и обусловленности явлений окружающего мира. Прежде всего это обеспечивается построением программ и учебников предметного преподавания при обязательном установлении межпредметных и внутрипредметных связей».

Таким образом, во всех учебниках есть упоминания о межпредметных связях. Но это только упоминания, они не показывают значения взаимосвязей в процессе обучения, а именно в подготовке учащихся к активному восприятию нового материала, в развитии таких умений, как сравнение, сопоставление, противопоставление и т.д. В целом, во всех учебных пособиях недостаточно раскрываются наработанные ранее в педагогике рекомендации по использованию взаимосвязей в обучении, в формировании мировоззрения. Надо признать, что и резко снизилось в

последнее десятилетие количество публикаций и результатов исследований по этой проблеме.

Тема «Межпредметные связи» не изучается ни в педагогике, ни в психологии, ни в частных методиках, о ней редко вспоминают на педагогической практике, она не отражена в билетах на государственных экзаменах. Поэтому выпускники вузов последних десяти-двенадцати лет не знают сущности межпредметных связей и, тем более, не владеют методикой их использования на уроках. И третье противоречие в том, что наработанные учеными-педагогами 80-90-х годов выводы и рекомендации по использованию межпредметных связей в обучении не находят применения во многих педагогических коллективах. Если в 80-90-х годах взаимосвязь между предметами была научной темой коллективов школ и отдельных учителей в плане повышения квалификации, она часто обсуждалась на педагогических советах, школьных научных конференциях, в методических объединениях, проводились и разбирались уроки на основе межпредметных связей, то в современных школах Узбекистана об этой теме вспоминают редко.

Поэтому у учащихся заметно снижаются темпы развития таких важных приемов учения, как сравнение, сопоставление, определение главного и существенного в изучаемом, снижается оперативность в припоминании и применении уже изученного, а в связи с этим притормаживается развитие таких качеств личности, как находчивость, сообразительность, оперативность. Кроме того, из процесса обучения выбывают такие приемы и методы познания нового, которые приносят учащимся радость и удовлетворение.

Эргашева Хилола
(Кўқон, Ўзбекистон)

ПЕДАГОГИК ТАЖРИБА МЕТОДИНИНГ ЖИҲАТЛАРИ

Эргашева Х.
(Коканд, Узбекистан)

ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТОДОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЭКСПЕРИМЕНТА

Аннотация. В статье приводятся основные понятия научно-исследовательского эксперимента, приведены методы педагогического эксперимента, такие, как опыты и лабораторные работы, статистические расчёты, сравнительный анализ, анкетирование, тест-опрос.

Xilola Ergasheva
(Kokand, Uzbekistan)

CHARACTERISTICS OF THE METHOD OF PEDAGOGICAL EXPERIMENT

Annotation. The article presents the basic concepts of a research experiment, are the methods of pedagogical experiment, such as experiments and laboratory work, statistics, comparative analysis, questionnaire, a test survey.

Педагогик тажрибани ташқиллаштириш ва режалаштириш муаммоси олий таълим педагогикаси назарияси ва амалиётида асосий умумназарий муаммолардан бири сифатида қаралади, Унинг ечими кўпгина таниқли педагогларнинг ишларида келтирилган: Архангельский С.И., Михеева В.И., Бабанский Ю.К., Журавлева В.И., Загвязинский В.И., Пискунова А.И. Олий таълим педагогикаси назарияси бўйича кўпгина ишларда педагогик тажриба кўп ҳолда дидактик деб юритилади, бу билан уни мақсадли йўналганлиги таъкидланади.

Замонавий олий таълим педагогикасида **педагогик тажриба** сифатида алоҳида методларни қўллаш самарадорлигини ва ўқитиш воситалари ва тарбия мақсадларини аниқлашда фойдаланиладиган изланиш методи тушунилади [4]

Педагогик тажриба учун характерли ҳолат шуки, тадқиқотчи текширилаётган ҳодисани пайдо бўлиш ва бориш жараёнига фаол кириб боради. Бу билан у, на фақат мавжуд ҳодисалар, балки яратилиши керакликлари ҳақида ўзини фаразсини текширади.

